

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

“Milliy g‘oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrası

152-MG‘ guruhi talabasi Samandarova Munojatning

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga

qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik

mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ishi

Topshirdi:

Samandarova M.

Rahbar:

Sheripov U.

Urganch – 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....3-7

I. BOB. FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLARNING TARKIBIY TUZILISHI VA JINOIY HUQUQIY SOHADAGI ISLOHOTLARNING MOHIYATI.....8-36

1.1. Shaxsga qarshi jinoyatlar tarkibida Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning ahamiyati, tushunchasi va tavsifi.....8-13

1.2. O'zbekiston Respublikasida jinoiy huquqiy sohani liberallashtirish muhim demokratik islohot sifatida.....14-36

II. BOB. FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLARNING YURIDIK TAVSIFI VA BU TURDAGI JINOYATLARGA OID MAVZULARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.....37-67

2.1. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlarning umumiy huquqiy tavsifi.....37-43

2.2. Fuqarolarning teng huquqliligi va turar joyi daxlsizligini buzish jinoyatining huquqiy tavsifi.....44-51

2.3. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish jinoyatining huquqiy tavsifi.....52-56

2.4. Jinoyat huquqi mavzularini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....57-67

XULOSA.....68-70

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....71-74

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi: Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar silsilasida muhim yo'nalish bo'lmish fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasiga qaratilgan sud-huquq tizimini liberallashtirish alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda mustaqil, adolatli sud hokimiyatini qaror toptirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, u mamlakat rahbariyatining doimiy diqqat markazidagi masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»¹ Farmonida ham mamlakatimizni 2017-2021 yillardagi rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortiShuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi jinoiy huquqiy sohani liberallashtirish va jinoyatchilikning oldini olish masalalarining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mustaqil, adolatli sud hokimiyatini qaror toptirish, odil sudlovni rivojlantirishga yo'naltirilgan, sud-huquq islohotlarini amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, mamlakat parlamenti bu sohada o'z dasturiga ega bo'lishi lozimligi rasmiy e'tirof etilgan edi². O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining ushbu so'zlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Kengashi «O'zbekiston Respublikasida sud islohotlarini yanada rivojlantirish dasturi to'g'risida»

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. Ushbu Farmon «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 8 fevraldagi 28 (6722)-sonida e'lon qilingan.

² Karimov I.A. Bunyodkorlik yulida. 4-t. —T.: «O'zbekiston», 1996. — 186-6.

qaror qabul kildi va tegishli Dasturni tasdiqladi³. Unda fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud tomonidan himoyalashni kuchaitirish va kengaytirish hamda sudning obro'sini oshirishni ko'zda tutuvchi tadbirlar belgilandi.

Sudlarning tarkibini takomillashtirish, ularni yangi tuzilmalar bilan to'ldirish maqsadida transport va soliq sudlarini tuzish, xolis hakamlik sudlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Jamiyatni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng dolzarb mavzularidan biri — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil erkinlashtirish va insonparvarlashtirishdan iboratdir. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, O'zbekistonda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va axolining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun xal qiluvchi vazifa bo'lib kolmoqda⁴.

Sud-huquq tizimidagi salmoqli islohotlar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati umumiy shakllanish jarayonining ajralmas, zaruriy tarkibiy qismidir. Mazkur islohotlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoklari bilan teng, mustaqil, kuchli sud hokimiyatini vujudga keltirishning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «...bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi»⁵.

Shubhasiz, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalarni hamda O'zbekiston Respublikasi

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. — 1996. №3. - 47-modda.

⁴ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. — T.: «O'zbekiston» NMIU. 2010. 15-16-6.

⁵ Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. — T., 2010. — B. 27–28.

Konstitutsiyasining inson hayoti, sog'lig'i, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizlik, oila va voyaga etmaganlarning manfaatlari, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi talablarini amalga oshirishni muhim vazifalari sifatida belgilaydi.

Shuning uchun ham yuridik jihatdan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligiga erishish jinoyatchilikka qarshi kurashning ustuvor vazifalaridan biri sifatida baholanadi. Zero, shaxs manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish ijtimoiy siyosatni samarali amalga oshirishning muqarrar shartidir.

Shu jihatdan qaraganda, shaxs xavfsizligini ta'minlash, uning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati va konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. Albatta, jinoyat huquqi nazariyasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga oid muammolar har doim ham olimlar, tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan va ushbu masalaning yuridik tahliliga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar yaratilgan.

Xususan, O'zbekistonda olimlardan M. X. Rustamboev (1998) va F. Toxirovlar (2001) tomonidan Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga oid jinoiy-huquqiy normalarni to'liq qamrab oluvchi maxsus o'quv qo'llanmalari tayyorlanib nashrdan chiqarilgan⁶ va jinoyat huquqiga oid darsliklar hamda sharhlarda ham bayon etilgan. Umuman, o'zida juda chuqur va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan mazkur mavzuga bag'ishlangan har qaysi adabiyotlarda mualliflar o'zlarining yondaShuvi va qarashlaridan kelib chiqqan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishi maqsadi sifatida Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning yuridik tabiatini ochib berish, ushbu turdagi jinoyatlarning tuShunchasi, jinoyat tarkiblarining

⁶ Rustambaev M.X. Prestupleniya protiv lichnosti. – T., 1998; Toxirov F. Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning yuridik tahlili: O'quv qo'llanma. – T., 2001.

belgilari, ularning turlari va kvalifikatsiya qilish qoidalarini ko'rsatish, Shuningdek ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurash sohasidagi davlat siyosati va uning bugungi kundagi imkoniyatlari to'g'risidagi bilimlarni targ'ibot qilish nazarda tutiladi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifasi Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning yuridik mazmuni hamda ularning ijtimoiy-siyosiy ma'nosini, uni tashkil etuvchi normalar hamda jinoyat huquqi va huquqning boshqa sohalari normalari (institutlari) bilan o'zaro bog'liqligini ochib berish, ularni ilmiy tahlil qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, bitiruv malakaviy ishida Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga oid bo'lgan yuridik kategoriyalar va qoidalar to'g'risidagi nazariy bilimlarni tizimlashtirish, ularning amaliy jihatlarini ochib berish, bu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jinoyat qonuni normalarini to'g'ri qo'llash va sharhlash masalalariga oid qoidalar yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekistonda Resbulikasida jinoiy huquqiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning yuridik belgilari, tarkibi hamda mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari bitiruv malakaviy ishining o'rganish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. O'zbekiston Respublikasida hayotga qarshi, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlarning huquqiy tavsifi va mazkur sohadagi mavjud muammolar bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Ishda ilmiy tadqiqotning tizimlashtirish, tarixiylik, sotsiologik, mantiqiylik, statistik, qiyosiy-huquqiy va boshqa usullaridan foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik va huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov hamda Prezidentimiz Sh.Sh.Mirziyoev asarlaridagi kontseptual g'oyalar va O'zbekiston Respublikasi

Jinoyat Kodeksi hamda mazkur sohada ijod qilgan olimlarning tegishli asarlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan sud huquq islohotlari Shuningdek Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar to'g'risida muxtasar ma'lumotlar berishga xizmat qiladi va bu sohaga qiziquvchi o'quvchilar uchun mustaqil o'quv materialini bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa ushbu bitiruv malakaviy ishida ilmiy muloqotga kiritilgan holatlarni ayrimlari yangi ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun mavzu yo'nalishlarni belgilanishiga turtki bo'ladi.

Mavzuning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, oltita paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 30 dan ortiq manbalardan foydalanilgan. Ishning hajmi 86 betni tashkil etadi.

I. BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLARNING TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AYRIM NAZARIY MASALALARI.

1.1. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoatlarning tushunchasi va umumiy tavsifi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismini o'z ichiga ettita bobni (I bob – Hayotga qarshi jinoyatlar; II bob – Sog'liqqa qarshi jinoyatlar; III bob – Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar; IV bob –Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar; V bob –Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar; VI bob – Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar; VII bob – Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar) qamrab olgan «Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar» deb nomlanuvchi birinchi bo'lim ochib beradi.

Mazkur guruhga kiruvchi jinoyatlarni qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limiga joylashtirishi Respublikamizda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish asosida olib borilayotgan qoidalarga, ya'ni aynan shaxsning hayoti, sog'lig'i, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat sifatida himoya qilish va shaxs manfaatlarini himoya qilishning kontseptual g'oyalaridan kelib chiqadi. Mazkur kontseptsiyaning o'zi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi» – deb mustah-kamlangan qoidaga asoslangan.

Shundan kelib chiqqan holda shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuz-lardan himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining asosiy vazifalaridan biridir.

Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'lig'i shaxsning bebaho boyligi hisoblanib, uning bu boyligidan mahrum etilishi yoki shikast etkazilishi og'ir jinoyat hisoblanadi.

Bu esa, ushbu turdagi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi, Shuningdek, Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi, ularning sodir etilishi natijasida hayot va sog'liq, jinsiy erkinlik, oila va yoshlarning manfaatlari, axloq normalari, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga jiddiy zarar etkazilishi bilan shartlanadi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasi-ning yuqoriligi, ularning sodir etilishi natijasida hayot, sog'liq, shaxsning jinsiy erkinligi, sha'ni va qadr qimmati, shaxsning ozodligi hamda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga zarar etkazish yoki zarar etkazish real xavfini keltirib chiqarishi bilan shartlanadi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar – bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan va bevosita shaxsning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati va konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda oila va voyaga etmaganlarning manfaatlarini muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi SHaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar deb nomlanuvchi birinchi bo'limga kiritilgan barcha jinoyatlarning turdosh ob'ekti shaxs manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, shaxs manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning mazkur turdagi jinoyatlarning ob'ekti sifatida baholash ularning ijtimoiy munosabatlar va undagi asosiy tizimning negizi kabi qaraladi. SHaxs bir vaqtning o'zida biologik mavjudot ekanligi hamda muayyan huquq va erkinliklar, majburiyat, ozodlik va boshqa ijtimoiy qimmatliklarga egaligini mujassam etadi. Ushbu bo'limda nazarda tutilgan har bir jinoyat shaxsning ijtimoiy hayotda mavjud ekanligini, uning huquq va erkinlik-larini normal amal qilishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Shu nuqtai-nazardan ushbu tahlillar «shaxs» va «inson» kategoriyalarini jinoiy-huquqiy muhofaza ob'ekti sifatida baholashda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish uchun hech qanday asoslarning yo'q ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ob'ektiv tomoni ko'p hollarda shaxsning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qilishi mumkin bo'lgan harakat yoki harakatsizlikda ifodalanishi bilan tavsiflanadi. Qonun chiqaruvchi Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning zaruriy belgilari sifatida ma'lum bir oqibatlar keltirib chiqish shartligini belgilovchi (moddiy tarkibli) yoki bunday oqibatlar kelib chiqishini nazarda tutmaydigan jinoyatlarni (formal tarkibli) qayd etgan. Masalan, Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning moddiy tarkibli turlarida jinoyatni tugallangan deb baholash uchun albatta qonun normasida nazarda tutilgan muayyan oqibatlarining kelib chiqqanligini aniqlash talab etiladi.

Xususan, qasddan odam o'ldirish (JK 97-m.) jinoyatida odam o'limi yuz berganligi jinoyatning tugallanganligidan dalolat beradi. Agar bunday oqibat shaxsga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra kelib chiqmagan bo'lsa qilmish qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinadi. Bunday tarkibli jinoyatlarni shaxsga qarshi bo'lgan boshqa jinoyatlarda ham kuzatish mumkin (masalan, sog'liqqa qarshi jinoyatlarda va boshq.).

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning formal tarkibli turlarida esa, jinoyatni tugallangan deb hisoblash uchun qonun normasida nazarda tutilgan jinoyatning ob'ektiv tomonini ifodalovchi qilmishlarning sodir etilganligining o'zi kifoya hisoblanadi. Masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (JK 112-m.) jinoyati o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitilgan vaqtdan boshlab tugallangan deb topiladi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar bilan bog'liq ishlar ko'rilayotganda, sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik hamda jinoiy oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash asosiy ahamiyatga egadir. Sababiy bog'lanish aniqlanmagan har bir holat tahlil etilayotgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmasligini anglatadi. SHaxsga qarshi ayrim jinoyatlarning dispozitsiyalari blanket xususiyatga ega bo'lgan moddalardan ham iborat hisoblanadi. Xususan, tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast etkazish (JK 132-m.), fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 144-

m.), saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-m.) va boshqa Shu kabi jinoyat ishlarni ko'rish va tergov qilishda boshqa huquq tarmoqlarining qonuniy hujjatlariga murojaat qilish zarurdir.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning sub'ektiv tomoni ham qasd, ham ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladi. Tahlil etilayotgan jinoyat tarkiblarining aksariyat qismi aybning qasd shaklida sodir etilishini nazarda tutadi (JK 97–101, 103–110, 113, 118–121-moddalar va boshq.), biroq mazkur jinoyatlar qatorida aybning ehtiyotsizlik shaklida ham ifodalanadigan jinoyatlar o'z aksini topgan (JK 102, 111-moddasi va boshq.). Jinoyatning motiv va maqsadlari tahlil etilayotgan bir qator jinoyat tarkiblarining (yoxud ularning turlarida) zaruriy belgisi sifatida ko'rsatilgan (masalan, JK 124, 130, 131, 133, 135 -moddalari va boshq.).

Ko'rilayotgan jinoyatlarning sub'ekti har qanday 16 yoshga to'lgan shaxs bo'lishi mumkin. Alohida hollarda, masalan, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirishda (JK 97-m. 2-q.) 13 yoshdan, qasddan odam o'ldirish (JK 97-m. 1-q.), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-m.), qasddan badanga og'ir shikast etkazish (JK 104-m.), qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast etkazish (JK 105-m.), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast etkazish (JK 106-m.), nomusga tegish (JK 118-m.), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-m.), odam o'g'rilash (JK 137-m.) jinoyatlarida 14 yoshdan, Shuningdek voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 122-m.), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 123-m.), voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (JK 127-m.), fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 144-m.), saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-m.) jinoyatlari uchun 18 yoshdan javobgarlikka tortiladilar. Shu bilan birga, shaxsga qarshi alohida turdagi jinoyatlarning sub'ektlari maxsus sub'ekt belgilariga ega hisoblanadi. Xususan, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-m.), tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish (JK 113-m.), jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (JK

114-m.), kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-m.), xavf ostida qoldirish (JK 117-m.), besoqolbozlik (JK 120-m.), ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (JK 121-m.), voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 122-m.), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 123-m.), ko'p xotinli bo'lish (JK 126-m.), fuqarolarning teng huquqliligini buzish (JK 141-m.), fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 144-m.), vijdon erkinligini buzish (JK 145-m.), saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-m.), mehnat qilish huquqini buzish (JK 148-m.) jinoyatlarida sub'ektning umumiy belgilarini aniqlash bilan birga ularning qonun normasida nazarda tutilgan qo'shimcha belgilarini ham aniqlash shartdir.

Qonun chiqaruvchi shaxs manfaatlariga tajovuz qiluvchi bir qator ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan himoya qiladi. Ularga, shaxs hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinlik, shaxs ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga, oiladagi normal munosabatlar, voyaga etmagan va yoshlarning normal rivojlanishi, umume'tirof etilgan axloqiy normalar va boshqalarni kiritish mumkin. Shu bois, Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar bevosita ob'ektiga qilingan tajovuzlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida guruhlariga ajratilgan. Ular quyidagilardan iborat: 1) hayotga qarshi jinoyatlar (JK 97–103-m.); 2) sog'liqqa qarshi jinoyatlar (JK 104–111-m.); 3) hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar (JK 112–117-m.); 4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar (JK 118–121-m.); 5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar (JK 122–134-m.); 6) shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar (JK 135–140-m.); 7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar (JK 141–149-m.). Ayrim, Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning yuridik tahlilini batafsil mazkur bitiruv malakaviy ishining keyingi bobida ko'rib chiqamiz.

1.2. O'zbekiston Respublikasida jinoiy huquqiy sohani liberallashtirishda Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun jazolarning isloh qilinishi masalalari.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng huquq ijodkorligi faoliyati jadallik bilan rivojlana boshlandi. Qonun chiqaruvchi o'zbek xalqining tarixiy rivojlanish xususiyati va mahalliy huquqiy an'analaridan kelib chiqib, mamlakatning yangi huquqiy institutlar tizimini va normativ negizini takomillashtirishga kirishdi. Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat qonuni shular jumlasidandir.

Jinoyat qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy davlat hokimiyati organi – Oliy majlisning normativ (me'yoriy) hujjati bo'lib, u jinoyat huquqining umumiy printsiplari va vazifalari, ayrim jinoiy qilmishlarning belgilari, ularni sodir etganlik uchun jazo choralarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan bo'lib, 1995 yil 1 apreldan kuch kirgan.

Jinoyat qonuni – tarixiy o'zgaruvchan kategoriya, chunki ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksiz ravishda rivojlanishi, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning doimiy ravishda mukammalashib, rivojlanib borishi, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy jihatdan o'zgarib borishi, o'z navbatida, jinoyat qonunchiligida o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi.¹

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Respublika mustaqillikka erishgandan keyin qabul qilingan dastlabki Jinoyat kodeksi bo'lib, u oldingi qonunlardan tub farq qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat qonuni

- qonun chiqaruvchi Oliy davlat hokimiyati organi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, umum e'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar asosida qabul qilingan huquqiy akt hisoblanadi;

- u o'zining vazifalari, printsiplari, maqsadi bilan oldingi qonunlardan tubdan farq qiladi;

- amaldagi Jinoyat qonuni, eng avvalo, inson huquqlari eng oliy qadriyat ekanligini tan olib, ularni kafolatlashni nazarda tutadi;

¹Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 37-b.

- huquqiy-demokratik davlatda jinoyat qonuni davlatning jamiyatni sog'lomlashtirish, xalqning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan haqiqiy xalq hokimiyatini shakllantirishga qaratilgan jinoyatga oid siyosatning quroli bo'lib xizmat qiladi;

- umumiy huquq tizimida jinoyat qonuni alohida o'rin egallab, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solibgina qolmasdan, balki ularni huquqqa xilof tajovuzlardan ham himoya qiladi;

- jinoiy javobgarlikning asoslari va printsiplarini mustahkamlab, jinoyat huquqining umum qoidalarini ishlab chiqadi;

- qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar(harakat yoki harakatsizlik) jinoyat ekanligini va jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qanday jinoiy jazolar tayinlanishi mumkinligini belgilab, muayyan huquqiy shartlar mavjud bo'lgan insonparvarlik, odillik printsiplaridan kelib chiqqan holda, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishni nazarda tutadi;

- fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun talablariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

YUqoridagilar bilan birga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni jinoyat huquqining yagona manbai hisoblanadi. Zero, jinoyat huquqining normalari faqat Jinoyat qonunida mujassamlashgan bo'lib, qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi faqat ushbu qonun bilan belgilanadi.

Ta'kidlash kerak, O'zbekiston Respublikasida jinoyat qonunini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lib, u o'ziga xos tarixga ega. Jinoyat qonunchiligi tarixida amaldagi Jinoyat kodeksi qabul qilingan kodekslarning uchinchi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Jinoyat kodeksi 1926 yil 16 iyunda qabul qilingan va 1926 yil 1 iyuldan amalga kiritilgan. Ushbu kodeks o'sha vaqtdagi RSFSR kodeksiga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, unda o'z vaqtida insonparvarlik g'oyalariga zid ba'zi bir normalar mavjud bo'lib, u qonli repressiyalarni o'tkazishda «huquqiy asos» bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Unga ko'ra, jamoat mulkiga suiqasd qilgan shaxslar xalq dushmani deb topilib, talon – taroj qilingan hollarda hatto o'lim jazosini qo'llash

nazarda tutilgan. Shunga qaramasdan, ushbu kodeksni o'z davrining progressiv qonunlari deb atash mumkin. Chunki 1926 yilgacha Respublika doirasida Rossiyaning 1922 yilgi Jinoyat kodeksi qo'llanilib, u mahalliy sharoitdan kelib chiqadigan talablarga javob bermas edi. 1926 yilgi kodeks O'zbekiston sharoitidan kelib chiqadigan, ya'ni odat huquqlari (barmta, xun) oila va nikoh huquqi hamda boshqalardan kelib chiqadigan jinoyatlar tarkibini nazarda tutdi, xotin-qizlarning ozodligi borasidagi bir qancha normalarni mustahkamladi.

O'zbekistonning ikkinchi Jinoyat kodeksi 1959 yil 21 mayda qabul qilinib, 1960 yil 1 yanvarda kuchga kirdi. Kodeks Umumiy va Maxsus qismlardan iborat bo'lib, Umumiy qism to'rt bo'lim, 53 moddadan, Maxsus qism esa, o'n bir bob, 204 moddadan iborat edi. Albatta, ushbu kodeks o'z tizimiga ko'ra, 1926 yilgi Jinoyat kodeksidan tubdan farq qilar edi. Kodeksning birinchi bo'limida «Umumiy qoidalar», ikkinchi bo'limida «Jinoyat to'g'risida»gi masalalar, uchinchi bo'limida «Jazo haqida» va to'rtinchi bo'limida «Jazo tayinlash va jazodan ozod qilish» to'g'risidagi normalar mustahkamlangan edi. Maxsus qismning birinchi bobida esa, davlatga qarshi jinoyatlar nazarda tutilgan edi. Ushbu kodeks 1995 yilning 1 apreliyigacha amalda bo'ldi. Agar O'zbekistonning 1926 yili qabul qilingan Jinoyat kodeksida analogiyadan foydalanilgan bo'lsa, 1959 yil 21 mayda qabul qilingan Jinoyat kodeksida analogiyadan tamoman voz kechildi. Ushbu kodeks ma'muriy buyruqbozlik tizimiga aosslangan bo'lib, insoniyatning qarama-qirshi sinflarga bo'linishidan kelib chiqar edi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qismdan iborat bo'lib, Umumiy qism 7 bo'lim 17 bob va 96 moddadan iborat, har bir bo'lim o'z mezonini va mazmuniga ko'ra barcha normalarni birlashtiradi. Umumiy qismda Jinoyat qonunining asosiy printsiplari, vazifalari, jinoiy javobgarlik masalalari, tamom bo'lmagan jamiyatlar, ishtirokchilik, jazo tizimi, jazo tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod etish, voyaga etmaganlar javobgarligi masalalari belgilangan. Maxsus qism etti bo'lim, 21 bob, 206 moddadan iborat. Kodeks jami 302 moddadan tashkil topgan. Maxsus qismning birinchi bo'limida SHaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar mustahkamlangan. Bu holat amaldagi Jinoyat kodeksida birinchi

o'rinda shaxs manfaatlari himoya qilinishining yorqin misolidir. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik va suverenitetga erishishi davlat va jamiyat oldida huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha dolzarb va yuksak vazifa, maqsadlarni yuzaga keltirdiki, bu borada Jinoyat qonunini liberallashtirish uning muhim institutlari, jumladan, jinoiy javobgarlik, jazo tizimi va jazo tayinlash qoidalari, Shuningdek, boshqa institutlarini isloh qilishni taqozo etdi. Bu esa, o'z navbatida, jinoyatga oid siyosatda an'anaga aylangan ko'pgina fikrlarni o'zgartirishga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari Birinchi Prezidentimiz tomonidan chuqur tahlil qilinib,¹ quyidagi bosqichlardan iborat ekanligi ta'kidlandi:

Birinchi bosqich, 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan jarayon bo'lib, ushbu davrda asosan milliy huquq tizimi shakllandi va rivojlandi.

Ikkinchi bosqich 2001-2007 va keyingi yillarni qamrab olib, ushbu davr jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liqdir.

Bu borada jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Shu o'rinda «liberallashtirish» atamasining ma'nosiga alohida to'xtalsak. Liberallashtirish so'zi lotincha liberalis – hur fikrli, erkin so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ammo to'g'ridan-to'g'ri tarjima bu so'zning ma'nosini to'la aks ettirmaydi. Aniqrog'i, u Shunchaki erkinlikni emas, balki insonning erkin fikrlash, inson faoliyatining turli sohalari haqida hukm chiqarish, Shu jumladan, har qanday siyosiy tuzumga baho berish, uni tanqid qilish, hatto (konstruktiv) oppozitsiyada turish qobiliyatini ifodalaydi. Ba'zan mazkur atama huquq maydoni doirasida ularning turli vakillari, Shuningdek, liberal oqim, liberal mafkura vakilining har xil qarashlari va g'oyalariga bag'rikenglik, xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish ma'nosida ham qo'llaniladi.

¹**Karimov I.A.** O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident I.Karimovning O'z R Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2007 yil 31 avgust.

²**G'ulomova M.** Sud-huquq tizimini liberallashtirish masalalari. – Toshkent, 2006,7-b.

Liberal qarashlar tizimi insoniyatning eng ilg'or, muhimi – ezgulik, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan aqlli nazariyalardan biridir.²

Liberallashtirish so'zi ba'zi hollarda erkinlashtirish, engillashtirish, odillashtirish, mu'tadillashtirish kabilar bilan ham ifodalanadi. Lekin bu so'zlar liberallashtirishning faqat muayyan qirralarini, mazmuninigina beradi, xolos (masalan, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, jinoyat qonunchiligi siyosatini mu'tadillashtirish, jazo choralarini engillashtirish va h.k.). Yaxlit mazmun kasb etuvchi so'z – liberallashtirish hisobalanadi,¹ Shu jihatdan, ta'kidlash kerak, tilimiz Shu ma'noda yangi so'z bilan boyidi va uni begona, yot so'z sifatida qabul qilish noo'rindir. Liberallashtirishning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy, iqtisodiy hamda huquqiy jihatlarini tadqiq etgan I.E.Xojanazarov unga yanada aniqroq tuShuncha berib, «liberallashtirish – huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan huquqiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib, erkinlik, odillik hamda inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini namoyon etgan, imtiyoz beruvchi va rag'batlantiruvchi demokratik qoidalarga asoslangan milliy qonunchilik tizimini shakllantirish jarayoni» ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi.²

Darhaqiqat, 2001 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni liberallashtirish siyosatining muhim tarkibiy jarayonlarini boshlab berdi.

Mazkur qonun qabul qilingan dastlabki vaqtda ayrim huquqShunoslarda jinoiy javobgarlikning erkinlashtirilishi mamlakatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida jiddiy muammolar yuzaga keltirishi hamda jinoyatlarning keskin ortib

¹**Rustamboev M.H.** Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi – davr talabi va istiqbolda takomillashtirish muammolari. // «Sud –huquq islohoti: nazariya va amaliyot» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2001, 165-b.

²**Xojanazarov I.E.** Liberallashtirish –O'zbekistondagi huquqiy islohotlarning markaziy yo'nalishi. yurid.fan.nom.diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2009, 7-b.

ketishiga olib kelishi mumkinligi haqida paydo bo'lgan xavotirlarning o'rinsizligi va asossizligini so'nggi yillardagi amaliyot yaqqol ko'rsatib turibdi.

Yuqoridagi qonun olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni liberallashtirishning natijasi bo'lib, uni amaldagi Jinoyat kodeksining isloh qilinishi deb baholash mumkin. Sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi.

Albatta, bu so'zni ko'p ma'noda tushunish mumkin: «...erkinlashtirish degani – bu qo'l-oyog'imizni kishan kabi bog'lab turgan har qanday to'siqlardan butunlay xalos bo'lish degani. Aslida iqtisodiyotga ishlatilgan bu so'z bugungi kunda sud-huquq masalasi bo'ladimi, davlat va jamiyat qurilishi yoki fuqarolik idoralarini shakllantirish bo'ladimi, ommaviy axborot vositalari yoki inson huquqlari bo'ladimi, jamiyatimizning barcha sohasiga daxldor bo'lgan muhim masalaga aylanmoqda.¹

Iqtisodni liberallashtirish ma'nosida olib qarajak, uning yangi klassik modeliga ko'ra, nazariy jihatdan bosh printsipli jamiyatning stixiyali kuchlaridan imkoniyat boricha erkin, majburlashsiz foydalanishdir (F.Xayek). YUqoridagi qonunda esa, so'z jinoiy jazo siyosatini va uni ijro etish siyosatini yumshatish ma'nosida qo'llanilmoqda. Albatta, jamiyat o'z a'zolaridan, davlat o'z fuqarolaridan «jinoiyatchi» yasashlaridan hech qachon manfaatdor emaslar. Bu juda keng masala bo'lib, uning ham siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy tomonlari bor. Bu erda gap birgina jinoyat ishini tergov qilish, ishning haqiqiy holatini anglab, dalillar to'plash, sudda ko'rib hal etish va jazoni ijro qilishni davlatga millionlab xarajatga tushishi to'g'risidagina emas, balki juda katta ijtimoiy-huquqiy muammolar ham bor.

Jinoiy jazo o'z tabiatiga ko'ra, jinoyat qonuni talablarini bajarmagan, uni buzgan shaxslarga nisbatan tarbiyaviy chorasidir. Jinoiy qilmishlarga tayinlanadigan jazolar, eng avvalo, jamiyat va davlatning tashkiliy tuzumini, tarixiy shakllanib kelgan jinoyat-huquqiy nazariyalar va ta'limotlar, udumlarga, jinoiyatchilik dinamikasiga ham bog'liq holda turli davrlarda uning maqsadi turlicha bo'lib kelgan.

¹Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. //Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – Toshkent: O'zbekiston, 2003, 26-52-b.

Aytaylik, qadimgi davrda o'ch olish, keltirilgan zararni (kompozitsiyaviy javobgarlik) qoplash, ba'zan jismonan yo'qotish bo'lsa, o'rta asrlarda keltirilgan zararni qoplash, jamiyatning boshqa a'zolarini jazo tahdidi bilan qo'rqitish va ogohlantirish, jamiyatdan ajratish bo'lgan. Yangi tarix davri jinoyat huquqiga va jazo tayinlash amaliyotiga g'arbiy Evropaning eng mashhur huquqshunos olimlari CH.Bekkaria, Monteske, Russoning qarashlarini olib kirdi. Endi jazoning sodir etilgan jinoiy harakatga (proporsional) tengligi, jinoyatsiz jazoning bo'lmasligi, aybsizlik ehtimolligi (prezumtsiyasi), jinoiy jazoni og'irlashtiruvchi jinoyat qonuni orqaga qaytish kuchiga ega emasligi va boshqa ilg'or qoidalar jinoyat qonunlariga kiritildi. Ana shular asosida jinoiy jazoning maqsadi belgilandi. Jazodan maqsad jinoyatchining shaxsini, qadr-qimmatini kamsitish, o'ch olish, jismonan yo'q qilish emas, keltirilgan zararni qoplash, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish, kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish bo'lib qoldi.

Mamlakatimizda ham jinoiy jazoning maqsadi asosan ana shulardan iborat. Yuqoridagi qonun mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, gap jinoiy jazoning ozligi yoki ko'pligi, qattiqligi yoki yumshoqligida emas, uning muqarrarligidadir. Jinoyatga og'ir jazolar belgilash bilan albatta, jinoyatchilikni tugatib bo'lmasligini tarixning o'zi isbotladi. Undan tashqari, ifodali qilib aytganda, «suv omborining to'g'oni osmonga etsa ham, suvning doimiy urib ketish xavfi qolaveradi».

Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan jinoiy jazo siyosatini liberallashtirish borasida ko'rayotgan chora-tadbirlar har tomonlama o'rinlidir. Jinoiy jazolarni liberallashtirishdan maqsad, jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda, boshqa engilroq jazo tayinlash yo'li bilan jamiyatga qaytarish imkoniyatini yaratish, ya'ni uni axloqan tuzatishdan iborat. Aynan shu maqsadlarda bugungi kunda dunyo miqyosida huquqqa va u bilan bog'liq barcha hodisalarga baho berishda «liberitar» (ya'ni erkinlikni ta'minlash vositasi sifatida) yonda shuv ustuvor mavqeni egallamoqda. Bu kontseptsiyaga asosan huquq, avvalo, erkinlik va adolat

mezoni, ularni ta'minlash vositasi, aholi xavfsizligi hamda har bir fuqaroning mulkiy mustaqilligini ta'minlovchi normativ tizimdir.¹

Shuning uchun davlatning jinoyatga oid siyosatini amalga oshirish borasidagi har bir qo'ygan qadami, jinoyat qonunchiligini va uni qo'llash amaliyotini rivojlantirishdagi har bir bosqich uning samaradorligi nuqtai nazaridan ham, uning qonuniyligi, insonparvarligi tamoyillariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ham baholanishi kerak. Zero, insonparvarlik, Shubhasiz, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati kontseptsianing asosiy g'oyasi bo'lib hisoblanadi.²

Faqat jazolashning o'zi bilan jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borishning iloji yo'qligini jazo masalasini tadqiq qilgan barcha tadqiqotchilar ta'kidlaganlar. Chunki jinoyatchilik muammosini hal etishga jazolovchi yonda Shuv iqtisodiy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham samarasizdir.

Jinoyat qonunini liberallashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida jazo tizimidan o'lim jazosini bekor qilish bo'ldi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning 2005 yil 28 yanvardagi birinchi qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident Islom Karimov: «Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala - bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir», deb uqdirgan edi. Darhaqiqat, o'lim jazosini bekor qilish mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilishning muhim vazifasi sifatida uzil-kesil hal etildi.

O'z navbatida ta'kidlash kerakki, ushbu tarixiy voqeani «kutilmagan yangilik» deb qabul qilish, albatta, xato bo'ladi. Chunki o'lim jazosining bekor qilinishiga mustaqillikning dastlabki yillaridan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinayotgan sud-huquq islohotlari zahirida tayyorgarlik ko'rib kelindi.

¹**Odilqoriev H.T.**, Tulteev I.T., Jinoiy-huquqiy siyosatni liberallashtirish: zarurat va omillar. // Huquq – Pravo – Law.-2002.- №1,7-b.

²**Pulatov YU.S.** O gumanizatsii uslovnogo osujdeniya v ugovnom i ugovno-ispolnitelnom zakonodatelstve. // Huquq-Pravo-Law. -2002.- №2. -C. 81-83.

³**Zaripov Z.S., Mirzajonov Q.** Voyaga etmagan huquqbuzarlar uchun muqobil choralalar. // Huquq-Pravo-Law. -2001.- №4, 50-b.

Mamlakatimizda o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan davrni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich 1994-1998 yillarni qamrab oladi. Ma'lumki, 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 aprelda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 13 ta modda bo'yicha, ya'ni:

- javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-modda ikkinchi qismi),
- nomusga tegish (118-modda to'rtinchi qismi),
- jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda to'rtinchi qismi),
- agressiya (151-modda ikkinchi qismi),
- urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda),
- genotsid (153-modda),
- terrorizm (155-modda uchinchi qismi),
- davlatga xoinlik qilish (157-modda birinchi qismi),
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (158-modda birinchi qismi),
- josuslik (160-modda birinchi qismi),
- jinoiy uyushma tashkil etish (242-modda birinchi qismi),
- kontrabanda (246-modda birinchi qismi),
- giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish (272-modda ikkinchi qismi) jinoyatlari bo'yicha o'lim jazosi qoldirilgan edi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu masalani hal qilish ustida ish olib bormoqdamiz. O'tgan o'n yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi. Vaholanki, yaqin o'tmishda O'zbekistonda o'lim jazosi nafaqat bir qancha davlatga qarshi va harbiy jinoyatlar, shaxsga qarshi o'ta og'ir jinoyatlar uchun, balki davlat va jamoat mol-mulkini juda ko'p miqdorda talon-toroj qilganlik, mas'ul mansabdor

shaxsning pora olishi yoki juda ko'p miqdorda pora olish, Shuningdek, ayrim boshqa jinoyatlar uchun ham nazarda tutilgan edi.

Shu bilan BMT Bosh assambleyasining 32 sessiyasi 1977 yil 9 dekabrda qabul qilgan 32/61-son rezolyutsiya qo'llab-quvvatlanganligini ta'kidlash kerak. Bu rezolyutsiyada, jumladan, Shunday deyiladi: «O'lim jazosi to'g'risidagi masalada ko'zlanishi lozim bo'lgan asosiy maqsad mazkur jazoni bekor qilish maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib, o'lim jazosi qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar sonini mumkin qadar kamaytirishdan iborat».

Ikkinchi bosqich 1998-2001 yilarni qamrab oladi. Bu davrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 29 avgustida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasida o'lim jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar soni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida 8 tagacha qisqartirilgan edi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, yana 5 ta jinoyat (JKning 119-moddasi to'rtinchi qismi, 152-moddasi, 158-moddaning birinchi qismi, 160-moddaning birinchi qismi, 246-moddaning birinchi qismi) sanksiyasidan o'lim jazosi chiqarildi.

Uchinchi bosqich (2001-2003)ni Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan «Adolat qonun ustuvorligida» nomli ma'ruzadagi jinoyat qonunchiligiga oid siyosatdagi jinoiy jazolarni liberallashtirish istiqbollari belgilab berildi. Shu sessiyada 2001 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonunga muvofiq yana o'lim jazosi sanksiyasida belgilangan jinoyatlar ro'yxati 4 tagacha kamaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 118-moddasi to'rtinchi qismi (14 yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegish), 157-moddasi birinchi qismi (Davlatga xoinlik qilish), 242-moddasi birinchi qismi (jinoiy uyushma tashkil qilish), 272-moddasi ikkinchi qismi sanksiyasidan o'lim jazosi olib tashlandi. To'rtinchi bosqich(2003-2005)da O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 12 dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq o'n uchinchi

sessiyasida Jinoyat kodeksidagi yana 2 ta jinoyat (JKning 151-moddasi ikkinchi qismi (agressiya), 153-moddasi (genotsid) sanktsiyasidan o'lim jazosi chiqarildi.

O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilishning keyingi beshinchi bosqichi 2005-2008 yillarga to'g'ri keladi. Bu bosqichda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 1 avgust kuni «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoni ayni muddao bo'lib, birinchi Prezident ta'kidlaganidek: «sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan muhim masalalardan biri – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir, bu o'rinda gap, ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, o'lim jazosiga moratoriy qo'llash, ya'ni mahkum yillar davomida ushbu jazo chorasi qachon ijro etilishini kutib yotishi to'g'risida emas, balki uni butunlay bekor qilish haqida bormoqda», deya ta'kidlab, o'zining bu jazo turiga munosabatini bildirdi. U siyosiy va ma'naviy jihatdan muhim bo'lib, davlatimizning jinoyatga oid siyosati o'lim jazosini qo'llashga nisbatan jahon tendentsiyalariga to'la mos kelishi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarining izchil ifodasi ekanligini belgilab berdi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi islohotlarining eng muhim vazifasi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va xususiy hayotga aralashishdan himoyalanih, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqi samarali muhofaza etilishini ta'minlash hisoblanadi.

Taniqli huquqshunos olim A.Saidov ta'kidlaganidek, mazkur farmon uch nuqtai nazardan iborat, birinchidan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim tarixiy voqea; ikkinchidan, sud-huquq islohotlarining uzviy tarkibiy va muhim bosqichi; uchinchidan, O'zbekiston amalga shakllantirilayotgan adolatli va insonparvar fuqarolik jamiyati sari qo'yilgan qadam, deb baholash mumkin.¹Sud-huquq islohotlarining yangi davrida (2008y.- hozirga qadar) O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi bekor qilindi hamda inson huquq va erkinliklarini

¹Saidov A. YAshash huquqi daxlsizdir.// Hayot va qonun. - №4. 2005, 13-b.

himoya qilish borasida milliy qonunchilik yana bir jihati bilan xalqaro standartlarga to'la moslashtirildi.

Ma'lumki, «Amnesty International» tashkiloti ham butun dunyo bo'ylab hech bir istisnosiz o'lim jazosiga qarshi chiqadi. Ushbu tashkilot tomonidan o'lim jazosi inson huquqlari buzilishining eng qo'pol rad etilishidir, o'lim jazosi - davlat tomonidan adolat o'rnatish yo'lida sovuqqonlik bilan va qasddan insonning o'ldirilishidir, o'lim jazosi - bu inson huquqlarini buzuvchi, noinsoniy, inson qadri-qimmatini xo'rllovchi, shafqatsiz jazodir, degan fikrlar ilgari suriladi.

«Amnesty International» tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, 80 davlat barcha turdagi jinoyatlar uchun o'lim jazosini bekor qilgan, 15 davlat favqulodda holatlardan tashqari, har qanday jinoyatlar uchun o'lim jazosini bekor qilgan, o'lim jazosini qonun yo'li bilan bekor qilgan yoki amalda qo'llamaydigan davlatlar soni 118 taga etadi, qolgan 78 davlat va hududiy tuzilmalar o'lim jazosini saqlab qolmoqda.

2008 yilda dunyoda 2400 ta o'lim jazosi bilan bog'liq hukm ijro etilgan. Ushbu hukmlarning aksariyat qismi Xitoy Respublikasiga to'g'ri keladi. Jumladan, 2008 yilda Xitoyda – 1718 ta, Eronda – 346 ta, Arab amirliklarida – 102 ta, AQSH – 37 ta, Pokistonda – 36 ta shaxs o'lim jazosiga hukm qilinib, qatl etilgan. Raqamlardan ko'rinishicha, qatl etilganlarning 93 foizi Xitoy, Pokiston, Arab amirliklari va Eron zimmasiga to'g'ri keladi.¹

MDH mamlakatlari ichida o'lim jazosi hozirgacha mavjud bo'lgan va eng ko'p qo'llanilgan mamlakatlardan biri, bu Belorussiyadir. Ma'lumotlarga qaraganda, 1991 yildan buyon ushbu mamlakatda 400 ga yaqin shaxs o'lim jazosiga hukm qilinib, qatl etilgan.² Eng achinarli holatlardan biri, ba'zi bir mamlakatlarda ushbu jazo o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanilganligidadir. Jumladan, Eronda sakkizta voyaga etmagan shaxsga nisbatan ushbu jazo qo'llanilgan.

Bugungi kunda, ya'ni jahondagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz paytida AQSH qonunchiligida ham o'lim jazosini bekor qilish masalalari dolzarb vazifalardan biri

¹Aleksandrov YU. Smertnaya kazn: itogi goda. //Prestuplenie i nakazanie. 2009. №6. – S.54.

²O'sha joyda, 54-b.

bo'lmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, o'lim jazosini ijro etish xarajatlari, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan 10 marotaba qimmatga tushar ekan. Jumladan, agar umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish uchun ba'zi bir shtatlarda 740 ming dollar sarflanishiga olib kelsa, o'lim jazosini ijro etish 1,26 mln. doll. xarajat qilish bilan bog'liqdir. Yana Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, agar jinoyat qonunchiligida o'lim jazosi amal qilar ekan, aybsiz kishining jazoning ushbu turiga hukm qilinishi ehtimoli har doim saqlanib qolaveradi³. Shu bois mamlakatimizda 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab o'lim jazosining bekor qilinishi, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy kutib olindi va butun dunyoda aks-sado berdi"¹.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosining bekor qilinishi, insonning eng oliy qadriyati bo'lmish uning yashash huquqini himoya qilishdan iboratdir. Yashash huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida belgilanishicha, har bir insonning uzviy huquqidir, uning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir, deyilgan. Shunday ekan, o'lim jazosining amaldagi Jinoyat kodeksida mavjudligi, davlatimizning Asosiy Qonunida ko'rsatilgan ushbu qoidalarga ziddir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning ta'biri bilan aytganda, «insonga, uning Parvardigor ato etgan hayotiga hamisha buyuk ne'mat sifatida munosabatda bo'lib kelgan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari ham Shuni taqozo etadi».

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunidan o'lim jazosining bekor qilinishga asos bo'lgan holatlardan yana biri, mamlakatimizda Jinoyat qonunini, jumladan jinoyat uchun jazo tayinlash tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim islohotlarning jadallik bilan amalga oshirilayotganligidadir.

Jahon tajribasi va sud amaliyotidan ma'lumki, o'lim jazosini jinoyatchilikka qarshi kurash borasida samarali vositalardan biri sifatida qarash mumkin emas, chunki u boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish

³AQSHda 1973 yildan buyon 107 ta hukm qilinganlar, o'zlariga nisbatan o'lim jazosi ijro etilishini kutayotganlar ozod qilib yuborilgan edi. Ushbu shaxslarning o'lim jazosiga hukm qilinganliklariga sabab bo'lgan jinoyatlarida ularning aybsiz ekanliklari isbotlanganligi bo'lgan. Ularning ko'pchiligi o'lim jazosi ijrosiga bir necha qadam qolgan holda ozod bo'lishga muyassar bo'lganlar. Bu haqda qarang: **Aleksandrov YU.** Smertnaya kazn v SSHA. // Prestuplenie i nakazanie. 2009. №5. –S.59.

¹**Karimov I.A.** O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 2007, 35-b.

maqsadida qo'llanilsa-da, ta'kidlash kerak, har doim jazodan ko'zlangan ushbu maqsadga erishilganligi yo'q. O'ta og'ir jinoyatlar, jumladan, aybni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish kabi jinoyat uchun ko'pchilik mamlakatlarda o'lim jazosi nazarda tutilganligiga qaramasdan, jamiyatda jinoyatchilikning ushbu mudhish turi hamon sodir etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida jinoyatchilikka qarshi kurashda samara berishi mumkin bo'lgan jazoning boshqa turlarini qo'llashni taqozo etadi.

Yuqoridagilar bilan birga o'lim jazosini shafqatsiz jazo sifatida qarash mumkin. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 7-moddasida nazarda tutilgan printsip, ya'ni insonparvarlik printsipiga ziddir. Uning shafqatsizligi, bu boradagi hukmning ijro etilishi munosabati bilan jinoyat sodir qilgan shaxsning inson sifatidagi mohiyati, uning qadr-qimmatini inkor etiladi, ya'ni inson jamiyatdan likvidatsiya qilish ob'ekti sifatida qaraladi. Ammo, ikkinchi tomondan, bunday shaxslar ham o'ta og'ir jinoyat, ya'ni aybni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan o'zгани o'ldirgan bo'lsa-chi, bunday shaxslarning yashashga haqi bormi, degan savol tug'iladi?! Ammo shafqatsizlik bilan sodir etilgan jinoyatga shafqatsizlik bilan javob berish esa, jinoyat sodir etgan shaxsdan o'ch olish olish bilan barovar, qolaversa, bizning xalqimiz doimo mehr-shafqatli bo'lib kelgan. Bu borada, M.Rajabova ta'kidlaganidek, «o'lim jazosi kabi jazo bilan shafqatsizlarcha jazolash yanada kuchli shafqatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin».¹

O'lim jazosini bekor qilishning aspektlaridan keyingisi, nazarimizda, uning Jinoyat kodeksi 42-moddasida nazarda tutilgan jazoning maqsadlariga muvofiq emasligidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 42-moddasi 2-qismiga ko'ra, «Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, Shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Jinoiy jazoning maqsadlari sifatida qonunda nazarda tutilgan ushbu holatlarni tahlil qilish, o'lim jazosining

¹Radjabova M. Jazoning maqsadi - javobgarlikdan ogoh etish.// Inson va qonun. №9. 2005, 1-b.

qo'llanilishi jazoning muhim maqsadlaridan biri, mahkumni axloqan tuzatish maqsadiga erishib bo'lmaydi.

Sud amaliyotida o'lim jazosini qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yish hollarini ham ushbu jazoni bekor qilishning asoslaridan biri sifatida qarash mumkin. Ushbu holda, ya'ni sud tomonidan xatoga yo'l qo'yilib, o'lim jazosi ijro etilsa, xato hech kim tomonidan tuzatilishi mumkin emas, chunki buning iloji bo'lmaydi. «Afsuski, nohaq o'lim jazosi tayinlash va ijro qilish hollari ham oz emas. Xususan, AQSHda 1900-1985 yillar o'lim jazosi 350 nafar aybsiz shaxsga nisbatan ijro etilgani rasman tan olingan. Keyingi 30 yil mobaynida bu jazoga mahkum etilganlardan 121 kishi aybsiz ekani aniqlanib, o'lim kameralaridan ozod qilingan. Kezi kelganda Shuni ham e'tirof etish kerakki, sho'rolar davrida sud hukmi va ma'muriy tuzilmalarning qarorlari, hatto oliy rahbariyatning «roziligi» bilan 800 mingga yaqin hur fikrli shaxslar «aksinqilobiy» jinoyatlarda ayblanib, otib tashlangani kishilik tarixidagi eng ayanchli fojidadir¹.

YUqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, o'lim jazosining 2008 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan bekor qilinishi, Respublikamiz huquq tizimining insonparvarlik me'yorlariga mosligini yanada mustahkamlab, oliy qadriyat bo'lmish yashash huquqini ta'minlashga xizmat qilmoqda².

Mamlakatimiz jinoyat qonunida o'lim jazosining bekor qilinishi munosabati bilan uzoq muddatga, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolarining mustahkamlanishi, sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi kontseptsiya hayotga tadbiiq qilinishiga olib keldi. Jinoiy jazo tizimini liberallashtirishga doir chora-tadbirlar ham ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu borada, ayniqsa, 2007 yil 15 iyunda qabul qilingan «O'lim jazosi bekor qilinishi munosabatida bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga

¹**Abdumajidov G'**. O'lim jazosi bekor qilinishi – muhim ijtimoiy voqelik. // «Otmena smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugovnykh nakazaniy». Materialy mejdunarodnoy konferentsii. – Tashkent, 2008. 102-b.

²**Karimov I.A.** Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2005, 44-45-b.

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonuni jinoiy jazolashning insonparvar huquqiy tizimlaridan biri tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Jazo tizimiga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining kiritilishi jinoyat uchun jazo tayinlash tizimini liberallashtirishning yana bir ifodasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bu borada jinoyatga oid siyosati umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashga nisbatan jahon tendentsiyalariga to'la mos keladi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarini izchil ifoda etadi.

Yuqoridagi Qonun o'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan mamlakatimiz jinoyat qonuni jazo tizimida yangi turdagi jazo, ya'ni umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazolarini tayinlashni nazarda tutadi. Boshqa davlatlar jinoyat qonunlaridan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ushbu jazo o'lim jazosining o'rniga yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir turi, muqobil jazo sifatida emas, balki Jinoyat kodeksi 43-moddasining «z» bandiga ko'ra, asosiy jazolardan biri sifatida nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 51-moddasining 1-qismiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir. U faqat ikki jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik (JK 97-moddasining «qismi») va terrorizm (JK 155-moddasining 3-qismi) uchun tayinlanishi mumkin.

«Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llash masalasini hal etishda sud mazkur jazo, faqat ish bo'yicha aybdor tomonidan g'ayriinsoniy hatti-harakatlarga yo'l qo'yilganligidan, Shuningdek jinoyatni sodir etgan shaxs jamiyat uchun mutlaq xavfli ekanligidan dalolat beruvchi va unga nisbatan boshqa jazo tayinlanishi imkoniyatini istisno etuvchi alohida holatlar bo'lganda, tayinlanishi mumkin».¹Shuning uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «**Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida**»gi 2007 yil 14 noyabrdagi 15-son qarori. // Huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2007, 46-b.

tayinlanayotganda, sud hukmining tavsif qismida bunday qaror qabul qilinishi sabablarini ko'rsatib o'tish lozim.

Ba'zi bir chet mamlakatlarning jinoyat qonunlarini o'rganish Shundan dalolat beradiki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash doirasi boshqa davlatlarda ancha yuqori. Jumladan, Daniya Jinoyat kodeksiga ko'ra, ushbu jazo – 9 turdagi, SHvetsiyada – 13, Belarusъ Respublikasida – 14, Gollandiyada – 19, Moldovada – 24, Germaniya va Pol'shada – 5, Frantsiyada – 18 turdagi jinoyatlar uchun qo'llash nazarda tutilgan. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qonunchiligida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'ta og'ir jinoyatlar, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik (JK 105-m. 2-q.), davlat yoki jamoat arbobining hayotiga tajovuz qilish (JK 277-m.), odil sudlovni amalga oshirayotgan shaxsning hayotiga tajovuz qilish (JK 295-m.), genotsid (JK 357-m.), huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimining hayotiga tajovuz qilish (JK 317-m.) kabi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan.

Germaniya Jinoyat kodeksiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi quyidagi jinoyatlar: agressiya, davlatga xoinlik qilish, Vatanga xoinlik qilish, odam o'ldirish, bosqinchilik, og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan yong'in, transport haydovchisiga bosqinchilik yo'li bilan hujum qilish, genotsid va boshqa jinoyatlar uchun nazarda tutilgan.

SHvetsiyada ham ushbu jazo ko'proq davlatga qarshi jinoyatlar, ayrim harbiy jinoyatlar, Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan bo'lib, u 21 yoshga to'lmagan shaxsga tayinlanishi mumkin emas. Yuqoridagilar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligi bo'yicha ushbu jazoni tayinlash chegarasi ham boshqa davlatlarnikidan farq qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonuniga ko'ra, ushbu jazo ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas. CHet mamlakatlar, jumladan, Frantsiya, Avstriya, Shvetsiya, Shveytsariya, AQSH, Daniya va boshqa mamlakatlar qonunlariga ko'ra, ushbu jazoni tayinlashda alohida qoidalar, cheklashlar nazarda tutilmagan. Angliyada umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda sud

jinoyat sodir etilishidagi barcha holatlarni va jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsga oid xususiyatlarini e'tiborga oladi. Sud ushbu jazoni faqat «jiddiy» jinoyatlar uchun tayinlashi mumkin (Jinoyat va jazo to'g'risidagi Qonunning 2- 1-q.) Ushbu qonunga ko'ra, odam o'ldirishga suiqasd qilish, dalolatchilik qilish, odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast etkazish, nomusga tegish yoki nomusga tegishga suiqasd qilish, 13 yoshdan kichik qizlar bilan jinsiy aloqa qilish va boshqa jinoyatlar jiddiy jinoyatlar deb topilishi mumkin. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ushbu davlatning Jinoyat qonuniga ko'ra, tamom bo'lmagan, ya'ni jinoyatga suiqasd qilganlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi esa, bu borada qilmishning boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga etkazilmaganligi, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bermaganligini e'tiborga olgan holda, tamom bo'lmagan, ya'ni jinoyatga suiqasd qilganlik uchun ushbu jazoni tayinlash to'g'risidagi qoidalarning mustahkamlamaganligi adolatlidir. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ushbu jazo Jinoyat qonuni maxsus qism moddalarida, muqobil (alternativ) jazo sifatida nazarda tutilgan. Ya'ni umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan moddalar sanksiyasida ushbu jazo uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muqobil jazo sifatida nazarda tutilgan. Vaholanki, boshqa mamlakatlar, jumladan, AQSH jinoyat qonunchiligiga ko'ra, u muqobil jazo sifatida emas, balki yakka tartibda mutloq jazo sifatida qo'llanilishi nazarda tutilgan. Yuqoridagilar bilan birga Respublika Jinoyat qonuni bo'yicha, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ushbu jazoga hukm etilgan shaxslar boshqa davlatlardagi kabi, muddatidan ilgari shartli ravishda javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emas. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 79-moddasi 5-qismiga ko'ra, jazoning 25 yilini o'tagan, saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilmagan, jazoni o'tash davomida og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etmagan shaxslar, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashdan shartli ravishda ozod qilinishi mumkin. Respublikamiz qonunchiligi muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risidagi qoidalarni nazarda tutmagan bo'lsa-da, umrbod ozodlikdan mahrum

qilish jazosiga hukm etilgan shaxslarga nisbatan afv etish to'g'risida iltimosnoma berish to'g'risidagi qoidalarni nazarda tutadi.

Jumladan, afv etish to'g'risida iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lanidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lgandan keyin berilishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, amaldagi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, shaxs umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganda, u afv etilishi natijasida qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqishi qonunchilikda aniq o'z ifodasini topmagan. Chunki Jinoyat kodeksi 76-moddasining 3-qismida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsni afv etishning faqat huquqiy shartlari nazarda tutilgan, xolos. Shuningdek, Jinoyat kodeksi 51-moddasida ham ushbu holat to'g'risida hech qanday qoidlar mustahkamlanmagan. Jinoyat kodeksi 50-moddasining 7-qismining «g» bandida esa, «umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm etilganlar, Shuningdek afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda» o'tashlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxs afv etilganda, ushbu jazo ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilishi mumkin. Ammo bu borada ozodlikdan mahrum qilish jazosini qanday muddatlarga almashtirish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 14 noyabrdagi «Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarorida ham oydinlashtirilmagan. Bu borada Ozarbayjon Respublikasi JKning 57-moddasiga ko'ra, «sud, umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lgan, jazoni o'tash davomida qasddan jinoyat sodir etmagan,

jazoni davom ettirishga hojat yo'q» degan xulosaga kelsa, tayinlangan jazoni 15 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirish mumkin.

Belarus davlati Jinoyat kodeksining 58-moddasiga ko'ra, «umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga, tayinlangan jazoning 20 yilini haqiqatda o'tagan yoki o'lim jazosi afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumning xulqi, sog'lig'i, yoshini etiborga olib, sud jazoning qolgan qismini muayyan muddatga, ammo 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirishi mumkin».

Ukraina davlati Jinoyat kodeksining 87-moddasiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxs afv etilganda, ushbu jazo 25 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilishi mumkin» deyiladi. Yuqoridagilarga ko'ra, bizning nazarimizda, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini afv etishning huquqiy oqibatlarini, aynan jinoyat qonunchiligida o'z aksini topsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz. O'lim jazosining bekor qilinishi munosabati bilan umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosining mustahkamlanishi, o'z navbatida, Jinoyat ijroiya qonunchiligi tizimida ham muhim o'zgarishlarga olib keldi, bu borada Jinoyat-ijroiya qonunida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi va shartlarini nazarda tutuvchi huquqiy tizim ishlab chiqildi, Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-bo'limida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish to'g'risidagi qoidalar mustahkamlandi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ushbu jazo maxsus tartibli koloniyalarda o'talib, mahkumlar kameralarga ko'pi bilan ikki kishi joylashtiriladi. Ular jazoning dastlabki o'n yilini qattiq saqlash sharoitlarida o'taydilar. Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan bitta mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi to'rt kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas. Ushbu jazoga hukm qilinib, jazoni maxsus tartibli koloniyada o'tayotgan mahkumlarning huquqiy holati, albatta, ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni Shu tartibdagi koloniyada o'tayotgan mahkumlarning huquqiy holatidan tubdan farq qiladi. Jumladan, ular yil mobaynida faqat bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov, bitta banderol olish huquqiga ega. Mahkumlar

saqlash sharoitlaridan qat'i nazar, har kuni bir yarim soatgacha sayr qilish huquqiga ega. Ta'kidlash kerak, ushbu jazoni ijro etish tartibi va shartlari bu boradagi xaqaro huquqiy hujjatlarda, jumladan, Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (1955 yil 30 avgust)da aks etgan asosiy talab va sharoitlarga javob beradi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlarga afv etish huquqining berilishi yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilingan, jazo muddatining ma'lum bir qismini o'tagan va jazoni o'tash tartibini buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan mahkumlar rag'batlantirish tariqasida engillashtirilgan saqlash sharoitlariga o'tkazilishining qonunchilikda ko'rsatilishi, bizningcha, nazariy, ham amaliy jihatdan to'g'ridir, o'z navbatida, mazkur o'zgartirish va qo'shimcha jinoyat qonunchiligining insonparvarlik tamoyillari asosida shakllanayotganligidan guvohlik beradi. Zero, jinoyat uchun jazo siyosatining haddan tashqari og'irligi jinoyat to'g'risidagi qonun hamda uni amalda qo'llash amaliyotining umumiy ogohlantiruvchi samarasini kamaytiradi, ijtimoiy ongda «yovuz jinoyatchi» tasavvuri o'rnini «jabrdiyda jinoyatchi» tasavvuri egallay boshlaydiki, bu, o'z navbatida, jinoyatlarni fosh qilish va jinoiy jazolarning muqarrarligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.¹

Yuqoridagilar bilan birga, qonunda mustahkamlangan ushbu qoidalar «bir tomondan aybdorlarni asossiz ravishda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, o'zboshimchalikni bekor qilsa, boshqa tomondan, ushbu qoida va mexanizmlar mahkumning axloqan tuzalish yo'liga o'tishiga asos bo'lib, muayyan holatlarda (yaxshi xulqi va boshqa) oilaga va erkinlikdagi normal hayotga qaytishga ishonch qoldiradi».²

Demak, O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan jinoiy jazo choralarining joriy etilishi bilan dunyoda jinoiy jazolashning eng insonparvar, huquqiy tizimlaridan biri tashkil etildi, deb ta'kidlash mumkin.¹

¹**Abdumajidov G.** O'lim jazosini bekor qilinishi – muhim ijtimoiy voqelik. //Otmena smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugolovnyy nakazaniy. Materialy mejdunarodnoy konferentsii. –Toshkent. 2008, 102–b.

²**Toxirov F., Axrorov B.** O'lim jazosini bekor qilinishi jinoiy jazolarni liberallashtirishning tadrijiy bosqichi sifatida. //Otmena smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugolovnyy nakazaniy. Materialy mejdunarodnoy konferentsii. –Toshkent. 2008, 128 –b.

¹**Yakubov A.** Vajnyy etap posledovatelnoy liberalizatsii sudebno-pravovoy sistema Uzbekistana. // Narodnoe slovo. 26 iyunya 2007 goda.

II. BOB. FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLARNING YURIDIK TAVSIFI VA ULARGA OID MAVZULARNI O'QITISHNING METODOLOGIK MASALALARI.

2.1. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlarning huquqiy tavsifi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari egalik qiladigan huquqlar turli-tuman va barcha sohalarda huquqiy jihatdan kafolatlangan. Ular qatorida fuqarolarning huquqiy maqomini belgilovchi va uni davlat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohasidagi faol ishtirokini ta'minlovchi huquqlari muhim o'rin tutadi va ular Asosiy qonun –Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yilgan. Shu bois, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz hisoblanib, ulardan sudning qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Konstitutsiya ushbu huquqlarni tantanavor ravishda e'lon qilish bilan birga ularning real amalga oshirilishini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlarini ham ta'minlab beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasi fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlab, «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga egadir. Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» –deb belgilab qo'yadi.

Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'liq ta'minlab berilgan. Fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishining kafolatlanishi fuqarolik jamiyatini ifodalovchi asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshirilishi kafolatlarini buzganlarga nisbatan intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy jazo choralari qo'llash tahdidi bilan ularning to'liq ta'minlanishini qonun normalari bilan kafolatlab beradi.

Shubhasiz, jinoyat qonuni fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining to'liq amalga oshirilishini ta'minlash vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Mazkur qonun fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquq va erkinliklariga qilingan tajovuzlar hamda uning amalga oshirilishini ta'minlovchi boshqa ta'sir choralari etarli hisoblanmagan holatlar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Bunday javobgarlik fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari qo'pol ravishda buzilgan hollarda kelib chiqadi. Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari amalga oshirilishini ta'minlash jinoyat huquqining barcha tizimi bilan kafolatlanadi. Jinoyat kodeksining «Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan VII bobida nazarda tutilgan huquqiy normalar fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (9, 18, 27, 31, 35, 37, 42-m.) mustahkamlangan va kafolatlangan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shaxsiy huquqlarini bevosita amalga oshirilishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilaydi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar deganda, fuqarolarning Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, aybli qilmishlar tuShuniladi. Barcha davlat organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlar va unda ko'rsatilgan talablarni ijro etilishiga yo'naltirilgan davlat organlarining qonun-osti hujjatlariga og'ishmay rioya qilishlari qonuniylikni ta'minlaydi. Qonun va qonun-osti

hujjatlariga rioya qilish fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan asosiy huquq va manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun qonunlarga to'liq rioya qilinishi har bir fuqaroning unga berilgan huquq va erkinliklarni to'liq ta'minlanishining asosi sifatida xizmat qiladi.

Jinoyat kodeksining Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar deb nomlangan VII bobida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklariga qilingan jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga yo'naltirilgan bir qator normalar mustahkamlangan. Ularda asosan fuqarolarning teng huquqliligi, fuqarolarning turar joy daxlsizligi, xat yozishmalari, telefon so'zlashuvlari, telegraf va boshqa xabarlarining sir saqlanishini ta'minlash, fuqarolarning murojaatlari, vijdon erkinligi, saylanish va saylash, mehnat qilish va mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar qilingan tajovuzlarni jinoiy-huquqiy jihatdan himoya qilishga yo'naltirilgan normalar belgilangan.

Jinoyat huquqi fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha munosabatlarni tartibga solmaydi. Shu nuqtai nazardan fuqarolarning huquq va erkinliklarini turlari bo'yicha amalga oshirilish tartibini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar va ularni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va tegishli xalqaro hujjatlarda belgilangan ⁷. Ammo mazkur holat fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan jinoiy-huquqiy normalarning amaliy ahamiyatini kamaytirmaydi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va

⁷ Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT Bosh konferentsiyasining 1966 yil 4 noyabr kuni bo'lib o'tgan to'rtinchi sessiyasida e'lon qilingan «Xalqaro madaniy hamkorlik printsiplari to'g'risida»gi Deklaratsiya; 1948 yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»; BMTning 1963 yil 20 noyabrdagi «Barcha turdagi irqiy kamsitishlarni tugatish haqida»gi Deklaratsiya; Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT Bosh konferentsiyasining 1978 yil 27 noyabrdagi yigirmanchi sessiyasida qabul qilinib, e'lon qilingan «Irq va irqiy bid'atlar to'g'risida»gi Deklaratsiya; BMT Bosh Assambleyasining 1981 yil 25 noyabrdagi 36/55-sonli rezolyutsiyasi bilan e'lon qilingan «Diniy yoki e'tiqod asoslari bo'yicha kamsitishlar va murosasizliklarning barcha turini tugatish haqida»gi Deklaratsiya; Xalqaro mehnat Tashkiloti Bosh konferentsiyasining 1958 yil 25 iyundagi qirq ikkinchi sessiyasida qabul qilingan «Kasb-hunar va mehnat sohasidagi kamsitishlarni oldini olish haqida»gi Konventsiya; BMTning 1952 yil 20 dekabrdagi «Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi Konventsiya; Xalqaro mehnat tashkiloti Bosh konferentsiyasining 1978 yil 27 iyun kuni oltinchi to'rtinchi sessiyasida qabul qilingan «Davlat xizmatlarining ish bilan bandligini muayyan sharoitlari tartibi va tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish haqida»gi Konventsiya va boshq. SHular bilan birga, mazkur ijtimoiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun va normativ hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

erkinlariga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining VII bobida belgilangan jinoiy-huquqiy normalar tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan normalar tizimini aynan holda aks ettirmaydi. Mazkur holat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini Jinoyat kodeksining boshqa boblarida nazarda tutilgan jinoiy-huquqiy normalar bilan ham himoya ostiga olinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jinoyat qonunchiligi fuqarolarning muhim hisoblangan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik belgilaydi. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tahlil etilayotgan jinoyatlarning turdosh ob'ektini fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi ijti-moiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shaxsiy huquqlarida ifodalanadi. Shu bois, tahlil qilinayotgan jinoyatlarning bevosita ob'ekti sifatida huquq normalari bilan tartibga solingan faktik ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi. Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirilishining real imkoniyatlarini ta'minlash shart-sharoitlariga tajovuz qilinmasdan turib, ushbu huquqlarga zarar etkazish mumkin emasligi mazkur ijtimoiy munosabatlarni ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ob'ekti sifatida baholashga imkon beradi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning ob'ektiv tomoni Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquq va erkinliklarini buzilishida va ularni amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslikda ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan tahlil etilayotgan jinoyatlarning ob'ektiv tomoni faol harakatlarda, ayrim hollarda esa, sub'ektning passiv xulq-atvori natijasida (harakatsizlik) ham sodir etiladi. Masalan, Jinoyat kodeksi 148-moddasida nazarda tutilgan jinoyat shaxsning bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishga tiklash to'g'risidagi sud qarorini bajarmaslikda ifodalangan harakatsizlik ko'rinishida sodir etilishi mumkin. Tahlil etilayotgan jinoyatlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biri ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlar tarkibining (ularning ayrim turlaridan tashqari) formal tuzilishi bilan izohlanadi. Mazkur holat jinoyat qonunida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar o'ziga

xos ravishda qo'riqlanishini ko'rsatadi. Ko'rilayotgan jinoyatlarning ob'ektiv tomonini tashkil etuvchi yana bir o'ziga xos xususiyati ushbu turdagi ayrim jinoyatlar (JK 142, 145-m.) zo'rlik ishlatish usulida sodir etilishida hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar qanday usulda sodir etilmasin, fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquqlarini buzishga yo'naltirilgan qilmishlar har doim aybning qasd shaklida ifodalanishini nazarda tutadi. Aybdor ushbu jinoyatlarni sodir etishda nafaqat o'z qilmishlarining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaydi va fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquqlarini buzilishi tarzidagi oqibatlarining ijtimoiy xavfliligiga ko'zi etadi, balki ularning kelib chiqishini xohlaydi va mazkur turdagi oqibatlarni kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Mazkur turdagi jinoyatlarda to'g'ri qasdning aqliy belgisi aybdor o'zi tomonidan sodir etilayotgan harakatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi lozimligini nazarda tutadi. Odatda, sud amaliyotida bunday vaziyat u yoki bu muammolarni keltirib chiqarmaydi, chunki, fuqarolik jamiyatida yashayotgan har qanday shaxs sodir etayotgan aniq harakatlari natijasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzayotganligi va qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglay olish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Jinoyat tarkibining sub'ektiv tomonini belgilashda shaxs ongi bilan nafaqat qilmishning huquqqa xilofligi va ijtimoiy xavfliligini anglagan bo'lishi qamrab olinganligini, balki unda jinoyat tarkibini tashkil etuvchi asosiy belgilari qatorida birinchi navbatda jinoyatning ob'ektiv belgilari va ayrim hollarda esa jinoyatning boshqa og'irlashtiruvchi holatlari xususiyatlarini ham anglaganligini aniqlash talab etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda fuqarolarning kons-titutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning sub'ektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi. Bunda qasd to'g'ri yoki egri bo'lishi mumkin. Tahlil etilayotgan jinoyatlardan ko'zlangan maqsad va jinoyatning motivlari turlicha bo'lishi mumkin (moddiy manfaatdorlik, o'ch olish, ko'rolmaslik, adovat, xusumat va boshq.), biroq ular mazkur turdagi jinoyatlarni yuridik baholashga ta'sir ko'rsatmaydi. Jinoyat sub'ekti belgilarini to'g'ri belgilash jinoyatga yuridik baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat qonuni jinoyat sodir

etgunga qadar qonunda belgilangan yoshga to'lgan jismoniy (JK 17-m.) va jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxslargina (JK 18-m.) javobgarlikka tortish mumkinligini nazarda tutadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, har qanday jinoyatning, Shu jumladan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning sub'ektlari birinchidan, qonunda belgilangan yoshga to'lgan bo'lishi va ikkinchidan aqli raso bo'lishi mumkinligini taqozo etadi. Tahlil etilayotgan jinoyatlarning sub'ektlari umumiy va maxsus sub'ekt belgilariga egadir. Jumladan, Jinoyat kodeksining 144-moddasi ikkinchi qismi (fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish), 146-moddalarida (saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatlarning sub'ektlari qonunda belgilangan javobgarlik yoshiga etgan, aqli rosa, jismoniy shaxs bo'lishi bilan birga o'zining maxsus belgilariga (mansabdor shaxs, siyosiy partiyalar yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, tashabbuskor guruhlar yoki saylov yoxud referendum komissiyalari a'zolari kabi) ham ega bo'lishi talab etiladi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi jinoiy-huquqiy normalar ushbu huquqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy huquq va erkinliklarga bo'linishi tariqasida tavsiflanadi. O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar, ularni himoya ostiga olgan muayyan jinoiy-huquqiy normalarni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi jinoiy-huquqiy normalar asosan uch guruhga ajratiladi va quyidagi turlari mavjud: 1) fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar: fuqarolarning teng huquqliligini buzish (JK 141-m.); saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-m.); saylov huquqining yoki ishonchli vakillar vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish (JK 147-m.); 2) fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar: fuqarolarning murojaatlari to'g'risida qonun hujjatlarini buzish (JK 144-m.); mehnat qilish huquqini buzish (JK 148-m.); mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish

(JK 149-m.); 3) fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar: fuqarolarni turar joyi daxlsizligini buzish (JK 142-m.); xat yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlar va boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish (JK 143-m.); vijdon erkinligini buzish (JK 145-m.)

2.2. Fuqarolarning teng huquqliligi va turar joyi daxlsizligini buzish jinoyatining huquqiy tavsifi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari boʻyicha Umumjahon Deklaratsiyasi va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga (18-modda) muvofiq barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqedan qatʼi nazar qonun oldida tengdirlar. Shu nuqtai nazardan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning har qanday sohalarida, jumladan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqedan qatʼi nazar teng huquqqa ega ekanligini belgilaydi.

Fuqarolarning teng huquqliligi jamiyat hayotining turli sohaları (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy)da buzilishi mumkin. Shuning uchun Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolarning teng huquqliligi taʼminlanishini nazarda tutadi. Mazkur jinoyat fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqedan qatʼi nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi va qonun oldida tengligini taʼminlovchi konstitutsiyaviy huquqlariga tajovuz qiladi. Shu bois, fuqarolarning teng huquqliligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning oʻrnatilishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini tenglik printsipiga asosan amalga oshirilishini taʼminlashning jinoiy-huquqiy kafolati hisoblanadi. Tahlil etilayotgan jinoyatning bevosita obʼekti fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqedan qatʼi nazar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan teng huquqlilik printsipi amalga oshirilishini taʼminlash bilan bogʻliq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Mazkur jinoyatning jabrlanuvchilari Oʻzbekiston Respublikasining

fuqarolari va O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin. Ular qatoriga chet el fuqarolari va O'zbekistonda doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham kiritilishi mumkin. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 23-moddasida «O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar» – deb belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, ushbu norma orqali nafaqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquqlar, balki xalqaro huquq normalari asosida belgilangan har qanday fuqaroga tegishli bo'lgan huquqlar himoya ostiga olinadi. Jinoyat kodeksi 141-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatning ob'ektiv tomoni bir yoki bir guruhga oid fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda ularning huquqlarini: 1) bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklashda; 2) fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berishda ifodalanadi. Ushbu qilmishlar harakat yoki harakatsizlikda namoyon bo'lishi mumkin. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish shaxsning o'zi yoki boshqa shaxslardan foydalangan holda amalga oshirilish mumkin. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish yoki cheklash fuqaroning o'z huquqlarini amalga oshirish uchun unga imkoniyat bermaslikda yoki to'sqinlik qilishda ifodalanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin, masalan: fuqaroni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda asoslantirilmagan holda ishga qabul qilmaslik, qonunga xilof ravishda ishdan bo'shatish, uy-joy bermaslik, qonunda nazarda tutilgan imtiyozlardan mahrum qilish va boshqa Shu kabilar.

Fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan kelib chiqib, ularning teng huquqliligini buzgan holda imtiyozlar berilishini nazarda tutadi. Fuqarolarning bu kabi konstitutsiyaviy huquqlarini buzish uy-joy

berish, rag'batlantirishga, mukofotlarga tavsiya qilish, imtiyozli kreditlar berish va boshqa Shu kabi harakatlarda ham ifodalanishi mumkin. Agar fuqarolarning teng huquqliligini buzilishi fuqaroning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqei bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa, bunday qilmish tahlil etilayotgan jinoyat tarkibinitashkil etmaydi. Ko'rib chiqilayotgan jinoyat fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan kelib chiqib, ularning teng huquqliligini buzgan holda bir-biridan ustun qo'yishga qaratilgan qilmishlar sodir etilgan vaqtdan e'tiboran tugallangan hisoblanadi. Tahlil etilayotgan jinoyatning sub'ektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi. Qasd ham to'g'ri, ham egri bo'lishi mumkin. Jinoyatning motiv va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi. Jinoyatning motivlari turlicha bo'lishi mumkin: boshqa millatga nafrat bilan qarash, u yoki bu irqdano'zini ustun qo'yish va boshq. Biroq ular sudlar tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinishilozim. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish jinoyatining sub'ekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Agar fuqarolarning teng huquqliligini buzish mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, qilmish mansab vakolatini suiiste'mol qilish (JK 205-m.), hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-m.) jinoyatlari majmui tariqasida kvalifikatsiya qilinadi. Agar fuqarolarning teng huquqliligini buzish zo'rlik ishlatib sodir etilgan bo'lsa, bunday qilmish Jinoyat kodeksi 141-moddasi ikkinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Qonun normasida zo'rlik ishlatishning xususiyati aniq belgilanmaganligi bois zo'rlik ham ruhiy, ham jismoniy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Agar zo'rlik ishlatish natijasida shaxsga og'ir shikast etkazilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 141-moddasi ikkinchi qismi va Jinoyat kodeksi 104-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Badanga etkazilgan engil va o'rtacha og'irlikdagi shikast darajalari Jinoyat kodeksi 141-modda ikkinchi qismi bilan qamrab olinadi. Bunday holda Jinoyat kodeksi 105 va 109-moddalari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talabetilmaydi. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish jinoyatini (JK 141-m.) milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish

(JK 156- m.) jinoyatidan farqlash kerak. Jinoyat kodeksi 141-moddasida nazarda tutilgan jinoyat fuqarolarning teng huquqliligini buzishda ifodalanadi. Jinoyat kodeksi 156-moddasida nazarda tutilgan jinoyat fuqarolarning milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab, aholi guruhlariga nisbatan adovat, murosasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadini ko'zlaydi. Bunday maqsad fuqarolarning teng huquqliligini buzish (JK 141- m.) jinoyatida kuzatilmaydi. Shu nuqtai nazardan mazkur jinoyatlar jinoyat tarkibining ob'ekti va sub'ektiv tomon belgilari bilan bir-biridan farqqiladi.

Fuqarolarning turarjoyi daxlsizligini buzish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi birinchi qismida «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega» – deb belgilab qo'yilgan va Shu norma asosida fuqarolarning turar joyga bo'lgan daxlsizlik huquqi kafolatlangan. Shu nuqtai nazardan hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi mumkin emas. Jinoyat kodeksi 142-moddasida fuqarolarning turar joy daxlsizligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan- ligi fuqarolarning turar joyga bo'lgan daxlsizlik huquqi ta'minlanishining jinoiy-huquqiy kafolati hisoblanadi.

Tahlil etilayotgan jinoyatning bevosita ob'ektini fuqarolarning turar joy daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Jinoyatning qo'shimcha ob'ekti sifatida fuqarolarning sog'lig'i, mulkiy munosabatlari bo'lishi mumkin.

Turar joyga bo'lgan daxlsizlik huquqi – bu shaxsning turar joyga bo'lgan mulk huquqini buzilishini anglatmaydi, balki u fuqaroning shaxsiy hayotiga bo'lgan daxlsizlik huquqining bir elementini tashkil etadi. Shuning uchun turar joyga g'ayriqonuniy ravishda bostirib kirishni fuqaroning shaxsiy hayotiga bo'lgan daxlsizlik huquqi buzilishining bir elementi sifatida qarash kerak.

Ushbu jinoyatning ob'ektiv tomoni turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirishda ifodalanadi.

Turar joy deganda, insonlarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga mo'ljallangan binolar tuShuniladi.

G'ayriqonuniy bostirib kirish deganda, fuqarolarning turar joyiga unda yashovchilarning roziligisiz kirish tuShuniladi. Huquq nazariyasida g'ayriqonuniy kirish nafaqat zo'rlik ishlatish bilan, balki yashirin, ochiqdan-ochiq, aldash yo'li bilan, to'siqlarni, odamlarning, Shuningdek, qo'riqlovchi xodimlarning qarshiligini engib sodir etilishi mumkin. Biroq, mazkur jinoyat tarkibi ob'ektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida qonun chiqaruvchi turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib bostirib kirishni kiritgan. Shu sababli turar joyga zo'rlik ishlatmasdan yashirin yoki aldash yo'li bilan kirilganbo'lsa, bunday qilmish tahlil etilayotgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmaydi.

Zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki jismoniy kuch ishlatish bilan qo'rqitib ruhiy tazyiq o'tkazish tuShuniladi.

Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish jinoyati ushbu jinoyatdan og'irroq bo'lgan jinoyat bilan bog'liq holda sodir etilganda qilmish jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiyaqilinadi (masalan, qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast etkazish va boshq.). Qolgan hollarda qilmish Jinoyat kodeksi 142-moddasi bilan qamrab olinadi.

Agar shaxs tomonidan talon-toroj qilish maqsadida fuqarolarning turar joyiga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 142-moddasi bilan kvalifikatsiya qilin- maydi. Bunday qilmish o'zgalor mulkini talon-toroj qilishning sodir etilish usuliga ko'ra bosqinchilik (JK 164-m.), talonchilik (JK 166-m.) yoki o'g'irlik (JK 169-m.) tariqasida kvalifikatsiya qilinadi⁸.

Ta'kidlash joizki, turar joyga nafaqat unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda kirish, balki uning yaqin qarindoshlari yoki ishonchli shaxslarning

⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «O'zgalor mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 1999 yil 20 aprel 6-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami. Birinchi jild. – T., 2007. – B. 220–224.

erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib bostirib kirilganda ham javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Bostirib kirish iborasi turar joyga kuch ishlatish bilan kirib borishni anglatadi. Bostirib kirishda shaxsning qaysi harakatlari jabrlanuvchining turar joyga bo'lgan daxlsizlik huquqini buzganligini aniqlash muhim hisoblanadi.

Qonun mazmuniga ko'ra turar joyga bostirib kirish g'ayriqonuniy ravishda sodir etilgan bo'lishi kerak. Shu sababli mazkur qilmishga to'g'ri huquqiy baho berish uchun turar joyga bostirib kirish qanday hollarda g'ayriqonuniy hisoblanishini baholash zarurdir.

Ma'lumki, g'ayriqonuniylik shaxsning unga nisbatan begona bo'lgan turar joyga kirish uchun huquqi bo'lmagan holda kirganligini anglatadi. Shuning uchun turar joyga qaysi holda kirish g'ayriqonuniy hisoblanishi haqidagi masalani to'g'ri hal etish uchun, dastlab turar joyga qonuniy holda kirish mumkin bo'lgan barcha sharoitlarni belgilab olish zarur bo'ladi.

Turar joyga quyidagi hollarda kirib borish qonuniy hisoblanadi:

Birinchi, turar joyda yashovchilarning ruxsati bilan kirib borish. Turar joyga unda yashovchilarning taklifiga ko'ramehmon-dorchilikka chaqirilgan shaxslarning yoki tergov harakatlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan shaxslarning kirishi ham g'ayriqonuniy deb baholanmaydi. Bunda turar joy egalarining roziligi ixtiyoriy ravishda berilganligini aniqlash zarur.

Amaliyotda qo'ni-qo'shnilar o'rtasida shakllangan o'zaro munosabatlar asosida tanish bo'lgan shaxslar har qanday vaqtda turar joy egasining rozilgisiz ham xonadonlarga kirib borishi mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga keladi. Bunda aniq hollarda turar joy egasining roziligi tashqi xususiyat kabi ifodalanmagan bo'lishi mumkin. Mazkur holatda turar joy egasining roziligi muayyan ehtimollikka asoslangan keliShuv sifatida qonuniy deb baholanadi. Mazkur vaziyatda faqat fuqaroning turar joyga bo'lgan daxlsizlik huquqi buzilmagan bo'lishi zarur.

Ikkinchi, turar joyga bostirib kirish oxirgi zarurat holatida sodir etilgan bo'lsa, huquqiy deb baholanadi. Bunday vaziyat yong'in, suv toshqini, zil-zila,

elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovod tizimlaridagi avariya vaqtida va boshqa Shu kabi holatlarda bo'lishi mumkin. Turar joyga bunday vaziyatda kirishning huquqiyligi Jinoyat kodeksining 38-moddasi bilan tartibgasolinadi.

Uchinchidan, qonun bo'yicha turar joylarga kirish huquqi beruvchi hollar mavjudligida xonadon egasining erkiga xilof ravishda turar joyga kirish g'ayriqonuniy deb baholanmaydi. Qonun normalari muayyan asoslar mavjud bo'lgan hollarda vakolatli shaxslarni turar joylarga u erda yashovchilarning roziligisiz ham turar joyga kirishga huquq beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 2001 yil 29 avgust qonun⁹ining 84-moddasida (sud ijrochilarining huquqlari) sud ijrochilari qarzdorlar egallab turgan yoki ularga qarashli bo'lgan, qarzdorga qarashli bo'lgan mol-mulk borligini tasdiqlovchi hujjatli ma'lumotlar mavjud bo'lganda boshqa shaxslar egallab turgan yoki ularga qarashli bo'lgan joylarga va Shu jumladan turar joylarga va omborlarga kirish, zarur bo'lgan hollarda joylar hamda omborlarni majburan ochish va xolislar ishtirokida ko'zdan kechirish huquqiga ega ekanligini nazarda tutadi. Shuningdek,

O'zbekiston Respublikasining «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi 2009 yil 30 sentyabr qonunlining 11-moddasida (fuqarolarning yong'in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatlari) fuqarolar o'ziga qarashli ishlab chiqarish, xo'jalik binolarini, turar joylarni va boshqa binolar hamda imoratlarni belgilangan tartibda yong'in nazoratini amalga oshirish maqsadida ko'zdan kechirishi va tekshirishi uchun yong'in nazorati organlarining mansabdor shaxslariga imkoniyat berishi shartligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ham turar joy daxlsizligi huquqini cheklovchi asoslar nazarda tutilgan. Jumladan, JPKning 161-moddasiga (Olib qo'yish va tintuv o'tkazish tartibi) muvofiq surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish haqidagi qarorga

⁹ O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. – 2009. – № 3. – 9-m.

yoki ajrimga asosan ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni qidirib topish maqsadida turarjoyga yoki boshqa binoga kirishga haqli.

Yuqorida begona shaxslarning turar joyga kirishining qonuniy xususiyatlari sanab o'tildi. Boshqa har qanday sharoitda fuqarolarning turar joyiga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib bostirib kirilgan barcha hollar Jinoyat kodeksi 142-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Tahlil etilayotgan jinoyat turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirilgan vaqtdan boshlab tugallangan deb topiladi.

Sub'ektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor o'zining harakatlari bilan fuqarolarning turar joyga bo'lgan daxlsizlik huquqini buzayotganini angelaydi va buni xohlaydi.

Ushbu jinoyatning sub'ekti 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda bostirib kirish mansabdor shaxs tomonidan sodir etilganda, uning harakatlari Jinoyat kodeksi 206-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

2.3. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzish jinoyatining huquqiy tavsifi.

Bugungi kunda fuqarolarning xat-yozishmalari, telefonda so'zlashuvi, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishiga bo'lgan huquqlari insonning ajralmas va tabiiy huquqlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzish har qanday xabarlar bilan fuqaro roziligisiz yoki qonunga xilof ravishda boshqalar tomonidan tanishilishini nazarda tutadi. Ta'kidlash joizki, har qanday shakldagi (xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegrafxabarlari va boshq.) xabarlar qonun bilan himoya qilinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi

ikkinchi qismida fuqarolarning xat-yozishmalari, telefonda soʻzlashuvi, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi kafolatlangan, Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida»gi 2002 yil 12 dekabr qonun¹⁰ining 13-moddasida fuqarolarning axborot borasidagi xavfsizligi taʼminlangan. Unga koʻra, jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy maʼlumotlar maxfiy axborot toifasiga kiritiladi.

Jismoniy shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi Shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi soʻzlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni toʻplashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Fuqarolarning xat-yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarining sir saqlanish huquqini cheklashga faqat Oʻzbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan tartibidagina yoʻl qoʻyilishi mumkin¹¹.

Xabarlarining sir saqlanish tartibini buzilishi natijasida fuqarolarning hayoti, shaxsiy, oila hamda xizmatdagixabarlarining sir tutilishi buziladi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarining taʼminlanmay qolishiga olib keladi.

Tahlil etilayotgan jinoyatning bevosita obʼekti fuqarolarning xat-yozishmalari, telefonda soʻzlashuvi, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan fuqarolarning xat-yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzish Jinoyat kodeksi 143-moddasi boʻyicha javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bunda jabrlanuvchilarning fuqaroligi hech qanday yuridik ahamiyat kasb etmaydi.

Tahlil etilayotgan jinoyatning obʼektiv tomoni xat-yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzish harakatlarida ifodalanadi.

¹⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. –2003. – № 1. – 2-m.

¹¹ Bunday tartib Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi- ning 166–168-moddalari va 21-bobida belgilangan.

Xat-yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlar oʻz tabiatiga koʻra fuqarolar oʻrtasida axborot almashish vositasi hisoblanadi.

Xat-yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzish bu fuqarolarning shaxsiy muloqotlarini aloqa vositalari yordamida almashish vaqtida fuqaroning oʻzi yoki qonuniy vakillari rozili- gisiz yoxud qonunda belgilangan tartibdan tashqari ravishda boshqalar tomonidan tanishilishini nazarda tutadi. Shuning uchun aloqa vositalari orqali xabar almashish sirini buzish xabarlar bilan tanishish nuqtai nazaridan hech qanday huquqqa ega boʻlmagan shaxsning mazkur xabarlar bilan tanishishida ifodalanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining «Pochta aloqasi toʻgʻrisida»gi 2000 yil 31 avgust qonunining 3-moddasiga muvofiq yozma xat-xabarlar oddiy, buyurtma va qimmatli xatlar, banderollar, oddiy va buyurtma pochta varaqchalari hamda sekogrammalari (koʻziojizlar uchun), Shuningdek mayda paketlar boʻlishi mumkin. Agar pochta aloqalari banderollar va posilkalar koʻrinishida boʻlib ular ichiga yozma xabarlar solinmagan boʻlsa, u holda mazkur holatlar tahlil etilayotgan jinoyat tarkibini tashkil etmaydi. Tovar moddiy qimmatliklarni joʻnatish uchun moʻljallangan pochta konteynerlari ochilgan va undagi moddiy qimmatliklar shaxs tomonidan egallangan boʻlsa, bunday qilmish oʻgʻirlik (JK 169-m.) sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Maʼlumki, xat-yozishmalar jismoniy shaxslar, korxonalar, muassasa va tashkilotlar oʻrtasida amalga oshiriladi. Ular shaxsiy va xizmat xususiyatiga ega boʻlishi mumkin.

Pochta xabarlarining sir saqlanishini buzish shaxstomonidan pochta yozishmalari fakti va uning mazmuni bilan qonunga xilof ravishda tanishishdan iborat boʻladi. Pochta xabarlarining sir saqlanishini buzgan va xat joʻnatuvchi va oluvchi oʻrtasidagi pochta yozishmalari haqidagi xabarlarini qonunga xilof ravishda boshqa begona shaxslarga bergan pochta aloqasi tashkiloti xodimining

harakatlari Jinoyat kodeksi 143-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkiletadi.

Pochta xabarlarini ochish fakti tugallangan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmaydi. Mazkur qilmish shaxs tomonidan xabar mazmuni bilan to'la yoki qisman tanishilgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Agar shaxs u yoki bu sabablarga ko'rapochta xabarlari mazmuni bilan tanisha olmagan bo'lsa (masalan, xat shaxs tuShunmagan chet tilida yozilgan yoki boshqa sh.k.), qilmish Jinoyat kodeksi 143-moddasiga suiqasd qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

Boshqa sabablarga ko'ra xat oluvchiga etib bormagan, yo'qotilgan, tashlab yuborilgan yoki yo'q qilingan bo'lsa qilmish Jinoyat kodeksi 143-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini keltirib chiqarmaydi. Bunday qilmish pochta aloqasi xizmatchilari tomonidan sodir etilgan bo'lsa intizomiy tartibda hal etiladi.

Telefonda so'zlaShuvlar – bu fuqarolarning telefon simi orqali yuboriladigan elektr to'lqinlari yoki radio aloqa to'lqinlari yordamida muayyan masofada turib ovozli axborot almashishini nazarda tutadi.

Telefon so'zlaShuvlari telefon apparaturalari yordamida jo'natiladigan, saqlanadigan va aniqlanadigan har qanday ma'lumotlardan tashkil topadi. Bunday ma'lumotlarga telefon apparaturalari yordamida bog'langan abonentlarning (aloqa foydalanuvchilarining) kirish va chiqish qo'ng'iroqlari haqida saqlanayotgan ma'lumotlar ham kiradi. Shuning uchun xat-yozishmalar, telefon so'zlaShuvlari va telegraf xabarlarining fakti haqidagi ma'lumotlar bilan begona shaxslarning qonunga xilof ravishda tanishtirish bilan bog'liq harakatlar ham Jinoyat kodeksi 143- moddasi bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi. Masalan, telefon kompaniyasi xodimi qonunga xilof ravishda(abonentning roziligisiz) abonentning uchinchi shaxslar bilan telefon orqali bog'lanishlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilishi telefon so'zlaShuvlarining sir saqlanish tartibini buzish deb topiladi va bunday qilmish Jinoyat kodeksi 143-moddasi bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi.

Telefon so'zlaShuvlari orqali amalga oshirilayotgan xabarlarning sir saqlanishini buzish boshqa shaxslar tomonidan qonunga xilof ravishda turli

qurilmalar (magnitofon, diktafon va boshqa sh.k.) orqali soʻzlashuvlarni yozib olish va eshitib turishda ifodalanishi mumkin.

Agar shaxs unga bogʻliq boʻlmagan u yoki bu sabablarga koʻra fuqarolarning telefon soʻzlashuvlarini eshitish harakatlarini oxiriga etkaza olmagan boʻlsa, qilmish jinoyatga suiqasd qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

Telegraf xabarlarini telegramma va teleks vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Telegramma – bu telegraf aloqasi yordamida joʻnatiladigan matnli xabar hisoblanadi.

Teleks – bu teleks tarmogʻidan foydalanuvchilar va telegraf aloqasi oʻrtasida matnli xabarlarni olish va joʻnatish uchun vaqtincha ulanish boʻyicha faoliyatdir.

Boshqa xabarlar deganda, ratsiyalar, peydjing, SMS xabarlarini, Internet tarmogʻi orqali foydalaniladigan elektron pochta, internet-telefoniya va boshqa Shu kabilar tuShuniladi. Zamonaviy fan va texnikaning rivojlanishi bilan muayyan masofadan turib axborot almashishning yangi vositalari va uslublari paydo boʻlib bormoqda. Shu bois yangi ixtiro qilingan vositalar yordamida axborot almaShuvi orqali xabarlarning sir saqlanishini qonunga xilof ravishda buzish ham mazkur jinoyatning tarkibini keltirib chiqaradi.

Taʼkidlash joizki, ayrim turdagi aloqa vositalarining turi uning texnik xususiyatlariga koʻra alohida xodimlar tomonidan xabarlar mazmuni bilan tanishishga yoʻl qoʻyadi (masalan, telegramma yoki peydjer axborotini joʻnatish vaqtida). Bunday hollarda xabarlar bilan tanishish xabarlarning sir saqlash tartibini buzish deb baholanmaydi, balki bunday holda xabar mazmunining tarqatganlik sir saqlash tartibini buzish deb hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 143-moddasining birinchi qismi boʻyicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish sharti, Shunday harakatlar uchun avval maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin bir yil davomida sodir etilgan boʻlishi hisoblanadi.

Tahlil etilayotgan jinoyat formal tarkibli boʻlib, fuqaro- larning xat-yozishmalari, telefonda soʻzlashuvi, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlarning

sir saqlanishi tartibini buzuvchi harakatlarni sodir etishi bilan tugallangan hisoblanadi.

Tahlil etilayotgan jinoyatning sub'ektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi. Jinoyatning motiv va maqsadi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

Ko'rilayotgan jinoyatning sub'ekti 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Agar bunday qilmish mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa ularning harakatlari Jinoyat kodeksi 143-moddasi va Jinoyat kodeksi 205 yoki 206-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

2.4. Jinoyat huquqi mavzularini o'qitishda zamonaviy pedagogik usul va tizimlarini qo'llash.

Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilimkoniyatlariniva ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga engyaxshimoslashgandir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modullio'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

| An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan | Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan |
|---|--|
| <p>Bir tomonga yo'naltirilgan axborot</p> <p>Bir tomonlama muloqot (darslik o'qituvchi o'quvchi)</p> <p>Axborot olish Xotirada saqlash</p> <p>Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzdayodlash</p> | <p>Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish</p> <p>Ikki tomonlama muloqot</p> <p>Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish</p> <p>Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish Mazmuni tushunish va hayotga bog'lash</p> |

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farqqiladi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi.

- Modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashtiruvchanligini ta'minlaydi; o'qitishni individuallashtirish;

- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibidarakajasi;
- talabalar tayyorgarligidarakajasi;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;

- modullar natijasi vatahliliga.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlarko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligin ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog' ilozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;

- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;

- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

- talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;

- talabalarining zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ngi o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

- axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talaba etarli bilimlarga ko'nikmaga ega bo'ladi. Modulli metodika asosida o'qitishda faoliyatlik, tizimlik vantage, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishilozim.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra modulli metodika asosida o'qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

1. Faoliyatlik tamoyili: Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondaShuvi yoki tizimli faoliyat yondaShuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasiga fan bo'yicha faoliyat yondaShuvda modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondaShuvda modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosidashakllantiriladi.

2.Tizimli kvantlash usuli - bu printsip didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o'quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo'li bilan erishiladi. Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy - bu muammo teorema masala kashfiyot va tuShunchalarning tarixiga qisqacha sharhberish;
- muammoli - bu muammonishakllantirish;
- tizimli - bu modul tarkibi tizimini namoyonetish;

- faollashtirish - bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratibko'rsatish;

- nazariy - bu asosiy o'quv materiali bo'lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash gipotezani asoslash muammoni echish yo'llari ochibko'rsatiladi;

- tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi tajribaviy ishni) bayonetish;

- umumlashtirish - bu muammo echimini va modul mazmunini umumlashtirish;

- joriy etish- bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o'rganilgan materialni amaliyotda qo'llash;

- xatoliklar – talabalarning modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;

- bog'liqlik - o'tilgan modulni boshqa modullar bilan Shu jumladan yondosh fanlar bilan bog'liqligini namoyon etish;

- test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog'liqligi Shu modulni o'rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

3. **Oziqtirish tamoyili**- bu tamoyilning mohiyati ta'lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalarini hisoblanadi.

4. **Modullilik tamoyili**- bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi dan modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya'ni to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O'qitishning u yoki bu turini tanlash talabaning o'ziga havola qilinadi.

Ikkinchidan modul mazmunini o'zlashtirishda o'qitish usuli va shakllarning turiligidagina ham modullilik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o'qish, o'quv, imitatsion o'yinlar va hokazo) hamda muammoli ma'ruzalar seminarlar maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan modullilik yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi. To'rtinchidan modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug'iladi.

5.Muammolilik tamoyili- muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlar paytida gipoteza qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va muammoning echimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQSHda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoning echim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. YA'ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda ayniqsa ana shu narsa talabani qiziqtirib qo'yadi unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

6.Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyili - bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O'qitishdagi ko'rgazmalar nafaqat so'roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib, murakkab ob'ektlar kompyuter suratchalari ko'rinishida tasvirlanadi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o'quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bunesa:

Birinchidan talabanning ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Ikkinchidan o'quv materiali mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi rasm talabada tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar o'quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda talabalarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining ma'lumotni o'tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini etkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlatilganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroqkechadi.

Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, og'zaki ma'lumotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb beziy aytilmagan.

Shu bilan birga ko'rgazmali ma'lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi. Og'zaki ma'lumotning o'zlashtirilishi esa, bunga bog'liq bo'ladi. O'rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvulli-ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samarasini oshiradi ya'ni o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma'lumotni ko'paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o'qitishni individuallashtirish zarurliginiko'rsatadi.

7.Xatoliklarga tayanish tamoyili- bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga talabalarning ruhiy faoliyati funktsional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilganbo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi talabada tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

8.O'quv vaqtini tejash tamoyili- bu tamoyil talabalarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi. To'g'ri

tashkil qilingan modulli o'qitish o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillari to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o'qitish – talabalarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o'qitishda fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

Mavzu. **JINOYAT HUQUQI ASOSLARI (“Aqliy hujum” metodi asosida)**

Aqliy hujum metodi – dars mavzusiga oid qo'yilgan muammoni echish yoki savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash usuli bo'lib hisoblanadi. Talabalar birgalashib echimi noma'lum muammoni echishga yoki savolga javob topishga harakat qilishadi. Eng qulay va ma'qul echimni yoki javobni topish bo'yicha shaxsiy fikrlarini bildiradilar.

Bu usulda bajarish bosqichlari quyidagilar:

muammoli vaziyatni keltirib chiqarish;

muammoni echimini topish uchun talabalarni jalb qilish;

turli echimlar taqdimotini eshitish:

echimlarni solishtirish va tanlash:

xulosa chiqarish.

Aqliy hujum metodi ushbu mavzu doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlashga, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlashga sharoit yaratib beradi.

Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash;

talabalarning kutilmagan mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish;

talabalar tomonidan bildirilgan fikr va g'oyalarni rag'batlantirib borish;

talaba o'zining shaxsiy fikr va g'oyalarga asoslanishi yoki aksincha o'z fikrini o'zgartirishi mumkin ekanligini tuShuntirish;

boshqalar tomonidan bildirilgan fikr yoki g'oyalar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik;

yangi fikr va g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri echimini e'lon qilishga shoshilmaslik;

dars jarayonida talabalarning har qanday faoliyatlari, ular bildirayotgan fikr va g'oyalarni iloji boricha rag'batlantirib borish.

Mashg'ulot jarayonida talabalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholash, darajalarga ajratish mumkin emas. Agarda fikrlar baholansa, darajalarga ajratilsa, talabani diqqat e'tibori faqat o'zini fikrini olg'a surish, qolganlarni fikriga tanqidiy qarash, hurmatsizlik bildirib, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi.

Ushbu metodni qo'llashdan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga, bir – birini fikriga hurmat bilan qarashga, eshitishga, fikr bildirishga va umumiy xulosa chiqarishga o'rgatishdir.

TEXNOLOGIK KARTA

| MAVZU | Jinoyat huquqi asoslari |
|--------------------------|---|
| Maqsad, vazifalar | Talabalarga Jinoyat huquqi predmeti. Jinoyat huquqining vazifalari. Jinoyat huquqi printsiplari. Jinoyat tuShunchasi. Jinoyat qonun bilan qo'riqlanadigan ob'ektdir. Jinoyatning tarkibi. Jinoiy javobgarlikda aybsizlik prezuptsiyasi. Jazo tuShunchasi. Jinoyatda ishtirokchilik tuShunchasi. Qilmishning jinoiyligi istisno etadigan holatlar. Voyaga etmaganlar javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari. Jazo belgilash yoshini tuShuntirish. |

| | |
|--|--|
| | <p>Mavzuga oid tarqatma materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh xolatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat – munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish.</p> |
| <p>O'quv jarayonining mazmuni</p> | <p>Jinoyat huquqi predmeti. Jinoyat huquqining vazifalari. Jinoyat huquqi printsiplari. Jinoyat tuShunchasi. Jinoyat qonun bilan qo'riqlanadigan ob'ektdir. Jinoyatning tarkibi. Jinoiy javobgarlikda aybsizlik prezuptsiyasi. Jazo tuShunchasi. Jinoyatda ishtirokchilik tuShunchasini tuShuntirish.</p> <p>Qilmishning jinoiyligi istisno etadigan holatlar. Voyaga etmaganlar javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan talabalarda tuShuncha, bilim va ko'nikmalarni hosil qilish</p> |
| <p>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p> | <p>Metod : og'zaki bayon qilish, suhbat munozara. “Aqliy hujum» texnologiyasi elementlari.</p> <p>Forma: Ma'ruza darsida, kichik guruhlarda va jamoada ishlash</p> <p>Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, sxemalar.</p> <p>Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida.</p> <p>Nazorat Og'zaki nazorat, savol javoblar, kuzatish, o'z o'zini nazorat qilish;</p> |
| <p>Kutiladigan natijalar</p> | <p>O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishiladi. Talabalarning faolligi oshadi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilik bilimi nazorat qilinadi. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.</p> <p>Talaba: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka xolda, hamda guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. O'zining fikrini himoya qilishni, asoslab berishni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p> |

| | |
|--|--|
| <p>Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)</p> | <p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, har bir texnologiya turiga ijodiy yondashish. O'z ustida doimiy ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar asosida mustahkamlash. Pedagogik mahoratini oshirish.</p> <p>Talaba: Matn bilan mustaqil ishlashni, erkin fikrlashni o'rganish. O'z fikrini ravon etkaza bilish va himoya qila olish. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish va ularni o'rganish. Mavzu yuzasidan qiziqarli savollar topish. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir echimga kelish, o'zgalarning fikrini hurmat qila olish malakasini xosil qilish.</p> |
|--|--|

O'qituvchi F. I.O.

XULOSA

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi inson huquqlari va manfaatlari to'la-to'kis ta'minlanadigan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Mamlakatimiz hayotining har bir jabhasida kechayotgan tub islohotlar, eng avvalo, demokratik huquqiy jamiyat qurish, xalq farovonligini oshirish, inson manfaatlarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish, har bir fuqaroning haq-huquqlari himoyasini ta'minlashga yo'naltirilgan.

O'tgan asrdan yigirma birinchi asrga transmilliy jinoyatchilikning uchta eng xavfli turi "meros" bo'lib o'tdi. Ularning birinchisi - xalqaro terrorizm va din niqobi ostidagi zo'ravonlik ruhi, kuch ishlatish, ya'ni ekstremistik, fundamentalistik, separatistik xurujlar, ikkinchisi - narkobiznes yoki narko-trafik bilan Shug'ullanayotgan jinoiy uyushmalar, uchinchisi - odam savdosi, trafik bilan Shug'ullanuvchi yirik-yirik jinoyatchi tashkilotlarning yildan-yilga kuchayotganidir.

Sanab o'tilgan transmilliy jinoyatchilik, ya'ni hudud yoki chegara tanlamayotgan jinoyatlarning qaysi bir turini taxlil qilmaylik, ularning barchasi insoniyat tsivilizatsiyasiga ochiqdan-ochiq to'siq ekani, jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirishi ma'lum bo'ladi.

Shu sababli uyushgan jinoyatchilik, xususi xalqaro terrorizm, narkobiznes, qurol-aslahalarni noqonuniy sotish bilan bog'liq o'ta og'ir jinoyatlar qatorida odam savdosining (trafik) har qanday ko'rinishiga qarsh kurash muammosi milliy qonunchiligimizda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqta.

Hozirgi paytda butun dunyoda insonlarni kamsitish, huquqlarini tan olmaslik, odam savdosi kabi jinoyatlar ko'payib borayotgani sir emas. Har qanday jamiyatni ham o'z domiga tortib yutib yuborish xavfi borgan sari kuchayotgan hozirgi taxlikali davrda real vaziyat bunday jinoyatga qarsh kurapshi yanada kuchaytirish, bu borada davlatlararo va xalqaro tashhsilotlar doirasida o'zaro mustaxdam hamkorlik o'rnatish hamda kuchlarni birlashtirish lozimligini taqozo etmoqda.

Joylardagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat gashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar luningdek fuqarolar odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni shalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashadi hamda zarur yordam so'rsatadi. Albatta, o'tkazilayotgan

targ'ibot va tashviqot ishlari o'z samarasini berishi, bular yordamida ushbu jinoyatlarning oldi olinishi, jabrlanuvchilar sonining kamayishiga erishilishi Shubhasiz. Ming afsuski, inson hayotini tasarruf qilish, insonni oldi-sotdi buyumga aylantirish ayrim vaxshiy va badnafs shaxslarning doimiy faoliyatiga hamda mumaygina daromad manbaiga aylanib qolmokda. Ammo yurtimizda bu ofatga qarshi jiddiy kurashish maqsadida barcha chora-tadbirlar ishga solinayapti. Bu borada barcha huquqiy asoslar yaratilgan. Bizdan esa hamisha oqoxlik va xushyorlik talab etiladi, xolos. Binobarin yonimizdagi odamlarning hayoti va kelajagiga og'u solayotgan bu baloga befarq bo'lishga aslo xaqqimiz yo'q.

1) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida odam savdosi jinoyati ob'ektiv jihatdan odamlarni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash jinoyati bilan qo'shib ifodalangan. Odam savdosi yoki sotish, sotib olish va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilib olish alohida alohida jinoyat tarkibidan iboratdir. Shu sababli ham qonunda (Jinoyat kodeksida) ushbu qilmishlar alohida moddalarda ifodalanishi lozim.

2) Mazkur jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun, respublikamizdan chet ellarga borib fohishalik, qo'shmachilik qilib kelayotgan shaxslarni aniqlash usullarini takomillashtirish, bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur.

3) Odam savdosi asosan aldov usuli bilan sodir etilganligi sababli, ommaviy axborot vositalarida, internet tizimida xorijda yaxshi ish va'da qilayotgan takliflar, reklamalar mazmuniga e'tibor qaratish, ular faoliyatini tekshirib turishni yo'lga qo'yish kerak.

4) Odam savdosi jinoyati respublikamizda ko'p holatlarda fuqarolarni chetga chiqishi oson bo'lgan yaqin qo'shni davlatlarga olib chiqib, keyin uzoq xorij mamlakatlariga olib ketish orqali sodir etilmoqda, Shu sababli ham, qo'shni davlatlarga chiqib ketayotgan fuqarolarimizning ham aniq maqsadlarini aniqlash, bu borada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mehnat jamoalari bilan huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligini kuchaytirish zarur.

5) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135 moddasining birinchi qismidagi "foydalanish" so'zi o'rniga "ekspluatatsiya qilish" va Kodeksning Atamalarining huquqiy ma'nosi deb nomlangan sakkizinchi bo'limidagi "odamlardan foydalanish" so'zlarini "odamlarni ekspluatatsiya qilish" deb o'zgartirilishi kerak.

6) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135 moddasi ikkinchi qismining "a" bandiga "o'g'irlash" so'zidan keyin "aldash" so'zi kiritilishi lozim

7) Jinoyat kodeksi 135 moddasi ikkinchi qismi "a" bandidagi o'g'irlash usuli bilan sodir etilgan jinoyatni Jinoyat kodeksining 137 moddasida nazarda tutilgan odam o'g'irlash jinoyatidan farq qilish lozim. Shu sababli ham Jinoyat kodeksi birinchi qismini yangicha tahrirda bayon etilishi taklif etiladi:

"Ushbu Kodeksning 135 va 245 moddalarida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lgan holda odam o'g'irlash".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jildlar.-T.: O'zbekiston, 1996-2016.
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016. -56 b.
3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-104 b.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016.-Toshkent: "O'zbekiston", 2017. -48 b.
5. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-491 b.
6. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-592 b.

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

VA QONUN OSTI HUJJATLARI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2017 . – 386 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2014 . – 384 b.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi. Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2017. – 319 b.

5. Zakon Respubliki Uzbekistan "O poryadke i razmerax vozmesheniya svidetelyam, poterpevshim, ekspertam, spetsialistam, perevodchikam i ponyatym ponesennykh rasxodov". №661 – XII ot 3 iyulya 1992 goda.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami, "SHarq", 1-jild.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami, 3-jild, 2008, "SHarq"

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami. 2010, "SHarq", 5-jild, 53-bet.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda;

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2017 yil 14 fevraldagi F-4849-sonli Farmoyishi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 7-son, 88-modda;

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-son Farmoni // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami". – 2016 y. № 43, 497-modda.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmoni // "Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 22 fevraldagi 38 (6732)-soni.

13. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "YOshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi 2016 yil 14 sentyabr O'RQ-406-son

14. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabr Qonuni.

III. MAXSUS ADABIYOTLAR

1. Musaev M.A. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga etkazishni tergov qilish. – T., 2007. – B. 38.

2. A.I.Toshpo'latov YOlg'on guvohlikning jinoiy huquqiy va kriminologik jihatlari. Monografiya. Falsafa va huquq instituti nashriyoti., T.: 2009. 150 b.

3. Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi milliy va xalqaro huquq normalari / Tuzuvchilar L. Ishoqova, K. Hamroeva. – T., 2010. – B. 28.

4. Abdumajidov G'. O'lim jazosini bekor qilinishi – muhim ijtimoiy voqelik. //Otmena smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugovovnyy nakazaniy. Materialy mejdunarodnoy konferentsii. –Toshkent. 2008, 102–b.

5. Rustamboev M.S. O'zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism. T.:TDYUI, 2006.

6. Ugolovnoe pravo. Osobennaya chast' / Pod red. A.I. Raroga. – M., 2008. – S. 58.

7. Q.Abdurasulova, S.Niyozova. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari. O'quv qo'llanma. T. 2006. 22-6

8. Musaev M.A. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliy muammolari. – T., 2011. – B. 41.

9. SHnayder G.I. Kriminologiya, S- 363.

10. Osipov P.P. Kompleksnoe izuchenie sistemy vozdeystviya na prestupnost' (metodologicheskie i teoreticheskie osnovy) M. 1978. S. 15.

11. Hakimov E.H. Hayotga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. – T., 1998. – B. 89.

12. Rustzmbaev M.X. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Respubliki O'zbekistan. Osobennaya chastb / M.X.Rustambaev [Pod obshchey red. A.A. Palvan-Zade] - T.: IPTD, 2004. - 758-6.

14. YUridik entsiklopediya YUridik fanlar doktori, professor U.Tadjixonovning umumiy tahririda. - T.: "SHarq",2001.-143 b.

15. Inomjonov SH.X. Jinoyat protsessida dalillarni taqdim qilish va ulardan foydalanishning muammolari. (Monografiya 2-nashr). -T.: TDYUQ 2006.

16. Gulyamov Z.X. Obshchaya xarakteristika prestuplenii protiv pravosudiya v Respubliki O'zbekistan. // J. Rossiyskaya prava. -2002. -№4. -S. 123.

17. Inogomjonova Z.F. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining *huquq* va manfaatlarining kafolatlari. // Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. -T.: TDYUI, - 2003.

18. Toxirov F., Axrorov B. O'lim jazosini bekor qilinishi jinoiy jazolarni liberallashtirishning tadrijiy bosqichi sifatida. //Otmena smertnoy kazni v Uzbekistane: liberalizatsiya ispolneniya ugolovnykh nakazaniy. Materialy mejdunarodnoy konferentsii. –Toshkent. 2008, 128 –b.

IV. Entsiklopediya va lug'atlar:

1. Falsafa: qisqacha izohli lug'at // mas'ul muharrir A. Jalolov. – T., 2004. – 287 b.

2. O'zbekiston yuridik entsiklopediyasi // Mas'ul muharrir: N.Toychiev. – Toshkent: Adolat, 2009. – 213 b.

V. Elektron ta'lim resurslari

1. www.lex.uz

2. www.edu.uz

3. www.gov.uz

4. www.ziyonet.uz

5. www.istedod.uz